

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**



**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

Tarix FAKULTETI

403 - guruhi talabasi Qurbanov Mansur Quvondiqovichning

5111600 "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi  
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: Jamiyatning ma'naviy yangilanishida milliy va umuminsoniy  
qadriyatlarning o'rni.**

**Ilmiy rahbar:**

**katta o'qituvchi D.Atayeva**

**Urganch 2015 yil**

*1-ilova. Bitiruv malakaviy ishining titul varag'i*

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**Tarix**  
(fakultet nomi)

**Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi**  
(kafedra nomi)

**Jamiyatning ma'naviy yangilanishida milliy va umuminsoniy  
qadriyatlarning o'rni.**

(bitiruv malakaviy ish mavzusining nomi)

**Bajaruvchi:**

**Qurbanov Mansur**

**Rahbar:**

**katta o'qituvchi D.Atayeva**

Urganch shahri  
2015-yil

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**Tarix**

(fakultet nomi)

**Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi**

(kafedra nomi)

**BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA**

**TOPSHIRIQLAR REJASI:**

**Talaba.** Qurbanov Mansurga Universitet rektorining «189 T 1&»-sonli 17 noyabr 2014 yil buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun **“Jamiyatning ma'naviy yangilanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni”** mavzusi tasdiqlangan.

**2. Kafedra majlisining qaroriga binoan.** D.Atayeva bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

**3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi:** Bitiruv malakaviy ish-Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

**4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlaridan, Oliy Majlis palatalari yig'ilishlari materiallaridan, mavzuga oid ilmiy maqola, risola, monografiyalardan, matbuot va internet materiallaridan olindi.

**5. Bitiruv malakaviy ishga** \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ **ilova qilinadi.**

### Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

<i>№</i>	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
1.	Ishning rejasini tuzish va adabiyotlar izlash.	2014 yil dekabr
2.	Materiallar izlash	2015 yil yanvar
3.	Ishning kirish hismini tayyorlash	2015 yil fevral
4.	I-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil hilish	2015 yil mart
5.	II-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil hilish	2015 yil aprel
6.	Ishning xulosasini tayyorlash	2015 yil may
7.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish	2015 yil may

**Bitiruv malakaviy ish rahbari:** katta o'qituvchi

D.Atayeva

**Bajaruvchi talaba:**

Qurbanov Mansur

2014 yil «6» dekabr

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2014 yil tasdiqlandi

(«6»- sonli bayonnoma)

**Kafedra mudiri:**

t.f.n U.Sheripov

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**3-ilova**

## **BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI**

**Talaba:** Qurbanov Mansur

**Bitiruv malakaviy ish mavzusi:** **Jamiyatning ma'naviy yangilanishida milliy  
va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni**

**Bitiruv malakaviy ish xajmi:** 88 sahifa

**Tushuntirish hismi:** 15 sahifa

**Ilovalar soni:** -

**Mavzuning dolzarbligi:** Mustaqil O'zbekistonning bosh maqsadi-bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishdir. Buning uchun esa kishilariing faolliga, salohiyati ma'naviy kuchlaridan unumli foydalanish taqozo etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov aytganidek, «...unib-o'sib kelayotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo'lib voyaga etishi uchun keng jamoatchilik va aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyosdir».<sup>1</sup>

Mamlakatimizda kechayotgan tub iqtisodiy o'zgarishlar natijalari xalq ma'naviyatining qay darajada kamolotga etganligi bilan o'lchanadi. Ma'naviyat mustaqillikning eng milliy omillaridan biridir. Ma'naviyat jamiyatni yangilash, iqtisodiyotni isloh qilishning ijgimoiy negazi sanaladi.

Ma'naviyatni tiklash va yuksaltirish masalasi umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lib, bu sohadagi eng asosiy vazifa-«milliy qadriyatlarimizni tiklash,

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.-O'zbekiston.2011.34b.

o`zligimizni anglash, milliy g`oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma`naviy hayotimizdagi o`rni va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko`tarish va ta`sirchanligini kuchaytirishdir»<sup>1</sup> deb ta`kidlaydi I.A.Karimov.

Bu vazifaning ijtimoiy maqsadi - mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan, barkamol shaxs -komil insonni tarbiyalashdir. Bunday shaxs yurt tinchligini, Vatan ravnaqini, xalq manfaatlarini muqaddas deb biladi, Bu tuyg`u milliy g`oya, milliy mafkura mazmuni, har bir insonning hayot dasturi bo`lishi kerak, Milliy g`oya va mafkura yurtimizda yashayottan barcha kishilarning ma`naviy boyligiga, dunyoqarashining negiziga aylanishiga erishish mustaqillikning asosiy maqsadidir<sup>2</sup>. Bu vazifani hal qilish ijtimoiy fanlarimizdan milliy g`oya va milliy mafkura haqida yaxlit ilmiy kontsepsiyani ishlab chiqishni, yoshlarimiz uchun aniq, ta`sirchan o`quv qo`llanmalari va darsliklar tayyorlashni, milliy g`oya, milliy mafkurani rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, bilimdon, zukko yoshlarimiz ongiga singdirishni talab qiladi.

Yuqorida aytilgan fikrlar biz tanlagan ish mavzusining naqadar dolzarbligini ko`rsatadi.

**Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi:**  
Abdurahmanov Botir barcha fanlarni to`la o`zlashtirib, ularni amaliyotga qo`llash ko`nikmasiga ega.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari Qurbanov Mansur o`zi mustaqil

---

<sup>1</sup> Karimov I.A Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. T.: O`zbekiston, 2010.-98b.

ishlay oladi, mahsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyatiga ega. O'zining mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ishlashga layoqatli, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, o'z ustida muntazam ishlaydi. Muomulasi yaxshi, ishga mas'uliyat bilan yondashadi.

**Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari.** . Bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda diplomant O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlaridan metodologik asos, mavzuga oid ilmiy maqola, risola, monografiya, matbuot va internet materiallaridan muhim manba sifatida foydalangan. Shuningdek, ishda Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oliy Majlis palatalari yig'ilishlari materiallaridan ham keng foydalanilgan.

**Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi.**

Ish to'la talabga javob beradi. Uning materiallaridan amaliyotda keng foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ish rahbari:            katta o'qituvchi D.Atayeva**  
(f.i.sh.)

2015 yil « » may

*4-ilova*

**Urganch davlat universiteti**

Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishining

**Bitiruv malakaviy ishiga**

**T A Q R I Z**

**Malakaviy ish mavzusi.**

**Jamiyatning ma'naviy yangilanishida  
milliy va umuminsoniy qadriyatlarning  
o'rni.**

**Malakaviy ishning hajmi.** \_17566\_ so'zdan iborat

**a) tushuntirish qismi varaqlar soni:** 73 sahifadan iborat

**b) ilovalar soni:** \_\_\_\_\_

**Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi.** Ishning mavzusi dolzarb, berilgan topshiriqqa mosdir

**Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati.** Ishning kirish qismida dolzarbligi, ilmiy o'rganilganlik darajasi, metodologik asosi va muhim manbasi, maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati, tarkibiy tuzilishi va xajmi o'z aksini topgan bo'lib, to'la talabga javob beradi.

**Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi.** Bitiruv malakaviy ishda ilmiy adabiyotlardan, innovatsion yutuqlar natijalaridan, prezident asarlaridan keng foydalanilgan.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi.** Ishda mavzuga oid barcha ma'lumotlar umumlashtirilgan va tahlil qilingan. Ish ilmiy uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan to'la asoslab berilgan. Amaliy ahamiyati ham ko'rsatilgan.

**Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab**

**chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari.** Ishda mavzuning ilgari kitoblarda aks ettirilmagan jihatlari ko'rsatib berilgan. Ishning materiallari va tavsiyalardan ta'lim sohasida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganishda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar.** Ishda ayrim texnik kamchiliklar va juz'iy orfografik xatolar mavjud. Ular ishning ahamiyatini pasaytirmaydi.

**Taqrizchi:** \_\_\_\_\_

(imzo)

UrDU qoshidagi 3 son akademik litsey

o'qituvchisi O'skinov Samandar

(mansabi, ish- joyi, darajasi, f.i.sh.)

2015 yil «31» may

### Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

<b>№</b>	<b>Baholanadigan bo'limlar</b>	<b>Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida</b>
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
3	"Xulosa" hismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

**Eslatma:** har bir kafedraning xususiyatlari e'tiborga olingan holda baholash mezonlariga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

## Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti

Milliy istiqlol g'oyasi, huquq va ma'naviyat asoslari ta'limi yo'nalishining bitiruvchisi Qurbanov Mansur "**Jamiyatning ma'naviy yangilanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o'rni**" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning «\_\_\_» 2015 yil «\_\_\_iyun» dagi majlisida himoya qilinadi.

**Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.**

<b>№</b>	<b>Baholanadigan bo'limlar</b>	<b>Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida</b>	<b>Komissiya belgilagan foiz</b>
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon hila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	MI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	

Jami:	
-------	--

**Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:** “Jamiyatning ma’naviy yangilanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o’rni” mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun \_\_\_\_\_ lik o’zlashtirish ko’rsatkichi belgilanish va «\_\_\_\_\_» deb baholansin.

2. \_\_\_\_\_

DAK raisi: \_\_\_\_\_

A’zolari: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

2015 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası

Bitiruv malakaviy ish \_\_\_\_\_sonli tartib raqam bilan  
qayd qilindi.

**Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Qurbanov Mansur**

**Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: Jamiyatning ma'naviy  
yangilanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni.**

**Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi:** katta o'qituvchi D.Atayeva

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2015 yil « » mayda o'tkazilgan majlisi qaroriga  
muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib O'skinov Samandar tayinlandi.

**Kafedra mudiri:** t.f.n U.Sheripov

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha  
tavsiyasiga roziman.

**Fakultet dekani:** t.f.n. O.Shixov

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 5111600 ta'lim  
bakalavr

Tasdiqlayman

fakultet dekani

t.f.n O Shixov \_\_\_\_\_

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2015 y.

### **BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ**

**Talaba:** **Qurbanov Mansur**

**Ishning mavzusi:** **Jamiyatning ma'naviy yangilanishida milliy  
va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni.**

«17 noyabr 2014 yil universitet rektorining 189 T 1& sonli buyrug'i bilan  
tasdiqlangan.

**2. Ishni topshirish muddati:** “ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2015 y.

**3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati.**

**4. Ishning maqsadi:** Ishda oilaning jamiyatimizda tutgan o'rnini, uning barkamol  
avlodni tarbiyalashdagi rolini keng yoritish asosiy maqsad hisoblanadi.

**5. Chizma materiallar ro'yxati:** \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**6. Maslahatchilar:** \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.Sh.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi

**Ishga taqriz yozuvchining F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni:**

O'skinov Samandar

**7. Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi D.Atayeva**

**BMI bajaruvchi talaba: Qurbanov Mansur**

(F.I.Sh.)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**Kafedra mudiri: t.f.n U.Sheripov**

(F.I.Sh.)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

## MUNDARIJA

Kirish. ....	13-17
I-BOB. Mustaqillik: tarixiy ma'naviy qadriyatlarga yangicha munosabat.	
1.1. Milliy istiqlol va jamiyatning ma'naviy yangilanishi. ....	18-28
1.2. Milliy ma'naviy qadriyatlarning inson va jamiyat hayotidagi o'rni. ....	29-50
II-BOB. Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida ma'naviy sohasidagi siyosatning ahamiyati.	
2.1. Jamiyat taraqqiyotida ma'naviy islohotlarning o'rni va ahamiyati. ....	51-64
2.2. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda jamiyat ma'naviy qiyofasining ahamiyati. ....	65-77
Xulosa. ....	78-81
Foydalanilgan adabiyotlar. ....	82-88

## K i r i s h

**Mavzuining dolzarbligi.** Mustaqil O'zbekistonning bosh maqsadi-bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishdir. Buning uchun esa kishilarning faolligiga, salohiyati ma'naviy kuchlaridan unumli foydalanish taqozo etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov aytganidek, «...unib-o'sib kelayotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo'lib voyaga etishi uchun keng jamoatchilik va aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyosdir».<sup>1</sup>

Mamlakatimizda kechayotgan tub iqtisodiy o'zgarishlar natijalari xalq ma'naviyatining qay darajada kamolotga etganligi bilan o'lchanadi. Ma'naviyat mustaqillikning eng milliy omillaridan biridir. Ma'naviyat jamiyatni yangilash, iqtisodiyotni isloh qilishning ijgimoiy negazi sanaladi.

Ma'naviyatni tiklash va yuksaltirish masalasi umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lib, bu sohadagi eng asosiy vazifa-«milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rni va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir»<sup>2</sup> deb ta'kidlaydi I.A.Karimov.

Bu vazifaning ijtimoiy maqsadi - mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan, barkamol shaxs -komil insonni tarbiyalashdir. Bunday shaxs yurt tinchligini, Vatan ravnaqini, xalq manfaatlarini muqaddas deb biladi, Bu tuyg'u milliy g'oya, milliy mafkura mazmuni, har bir insonning hayot dasturi bo'lishi kerak,

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.-O'zbekiston.2011.34b.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. T.: O'zbekiston, 2010.-98b.

Milliy g'oya va mafkura yurtimizda yashayotgan barcha kishilarning ma'naviy boyligiga, dunyoqarashining negiziga aylanishiga erishish mustaqillikning asosiy maqsadidir<sup>2</sup>. Bu vazifani hal qilish ijtimoiy fanlarimizdan milliy g'oya va milliy mafkura haqida yaxlit ilmiy kontsepsiyani ishlab chiqishni, yoshlarimiz uchun aniq, ta'sirchan o'quv qo'llanmalari va darsliklar tayyorlashni, milliy g'oya, milliy mafkurani rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, bilimdon, zukko yoshlarimiz ongiga singdirishni talab qiladi. Ma'naviyat masalalarini falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etishning dolzarbligi, yuqoridagilardan tashqari, quyidagi omillar bilan ham belgilanadi:

Birinchidan: iqtisodiy islohotlarning yangi davriga qadam qo'yarkanmiz, u madaniy-ma'rifiy sohadagi ishlarni, ayniqsa ma'naviyatni rivojlantirish vazifalarini belgilab olishni talab qiladi.

Ikkinchidan: ma'naviy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy ishlar sohasidagi muammolarni belgilab olish, ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan hal etish, bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan davrda, Prezidentimiz aytganidek, suv va havoday zarurdir.

Uchinchidan: xalqimizning nafaqat iqtisodiy hayotida, balki, shu tafakkurida va ma'naviyatida yangilanish, o'zgarish jarayonlari kechmoqda. Shu bois jamiyat ma'naviyati rivojlanishining xususiyatlarshi ilmiy-nazariy tahlil etish ehtiyoji tug'ilmoqda.

To'rtinchidan: xalq ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi, milliy qadriyatlari, urf-odati, an'analari, tili, dinining qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Haqiqatdan ham mustaqillik va taraqqiyot yo'lidagi ishlarning ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat manbai, ilmiy asosi bu- milliy g'oya, mafkura bo'lishi shart. Shu bois, ma'naviyat masalalari, milliy g'oya, milliy mafkura, umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda tahlil etish zarur. Ma'naviyatning ushbu jihatlarini ilmiy tahlil qilish davr talabiga munosib keladi.

Beshinchidan: mustaqil respublikamiz olimlari ziyolilari oldida turgan asosiy vazifa, ma'naviyatning ijtimoiy hayotimizdagi o'rni, mohiyati va ahamiyatini belgilash, uning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish, ma'naviy, g'oyaviy, mafkuraviy, tarbiyaviy yo'nalishlarini ishlab chiqishdir.

Yuqorida aytilgan fikrlar biz tanlagan ish mavzusining naqadar dolzarbligini ko'rsatadi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Mustaqillik yillarida milliy mustaqil mohiyati va maqsadlari, iqtisodiy, siyosiy va madaniy zaminlari, milliy mafkurasini yaratish, uning zaruriyati va imkoniyatlari, milliy g'oyalari asosiy ijtimoiy ongini shakllantirish masalalariga, umuman, ma'naviyatning nazariy va amaliy muammolarini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan mavzularga bag'ishlangan monografiya va risolalar, to'plam va maqolalar e'lon qilindi<sup>1</sup>.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari.** Ishning asosiy maqsadi - ma'naviyat tushunchasining mohiyati, uning tuzilishi, manba va mezonlari, jamiyat va ma'naviyatning o'zaro munosabati, jamiyatning ma'naviy hayoti tushunchasi, uning ijtimoiy tizimida tuttan o'rni va rivojlanishining o'ziga xususiyatlarini ko'rsatish bilan birgalikda, yangi tarixiy sharoitda, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, jamiyatning ijtimoiy idealiga, kishilarning ma'naviy kamoloti, ta'lim-tarbiyaning pirovard maqsadiga aylanayotganligini ochishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar quyildi:

---

<sup>1</sup> Hasaniy M. Yurt qo'ynidagi qilich yoki istilo. T.: Adolat 1997, -12 b.  
Xo'jamurodov I.R. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zligini anglash. T.: O'zbekiston, 1991. - 150 b.  
Shayxova X., Nazarov K. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot. T.: O'zbekiston, 1992. - Shermuxamedov S. Falsafa fani yangilanishining ba'zi muammolari. T.: Fan, 1996. -180 b, Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. -T.: O'zbekiston, 1996. -144 b.  
Jalolov A. O'zbekisgosh Mustaqillik, ma'naviyat, mafkura – T. :O'zbekiston, 1994-234b.  
Po'latov X. Mustaqilligimiz qadriyatlari. O'zbekistonninr milliy istiqloq mafkurasi. 1993, 167b.  
Mirzaeva M. Yoshlar va milliy meros. // Muloqot. - 2001.-№ 6.- B.26-28.  
Begmatov A. Ma'naviyat falsafasi yoxud I.Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. - T.:Sharq,2000. -96 b.  
Jo'raev N. O'zligini anglash mavrudi. - T.: O'zbekiston, 1990. -125 b.  
Xujamurodov M. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zligini anglash. -T.: O'zbekiston, 1991. -150 b.  
Shermuxamedov S. Mustaqillik buyuk ne'mat. -T.: O'zbekiston 1997. - 80 b. 149.  
Choriev S.A. Millatlararo munosabatlar madaniyati. - Qarshi, Nasaf, 1993. - 97 b.  
Yusupov E va boshqalar. Milliy masala bo'yicha falsafiy suxbatlar. -T.: Fan. 1990. - 144 b.

- ma'naviyat tushunchasining ma'nosi, genezisi, manbalari mezonlarini falsafiy tahlil etish;

- jamiyatning ma'naviy hayotini tahlil etish asosida, uning o'ziga xos xususiyatini ochib berish hamda ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan bog'liqligi va o'zaro ta'sirini ko'rsatish;

- jamiyat va ma'naviyatning o'zaro munosabatlarini tahlil etib, ma'naviyatning ijtimoiy rivojlanishdagi nisbiy mustaqilligiga e'tibor berish, uning vorisiy aloqadorligini aniqlash;

- ma'naviyat va dunyoqarashning o'zaro munosabatini tahlil etib, ulariing milliy g'oyasi, milliy mafkura, yangicha tafakkur, yangicha dunyoqarash asosida vujudga kelayotganligini ko'rsatib, erkin fikrlash uchun mafkuraviy, ma'naviy mustaqillikning zaruriylikni asoslash.

**Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti** sifatida, ma'naviyat tushunchasining ma'nosi, genezisi, manbalari mezonlari belgilangan.

**Bitiruv malakaviy ishning predmetini.** Jamiyat ma'naviy yangilanishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, yosh avlodda sog'lom dunyoqarash va ilmiy-badiiy tasavvurlarni shakllantirishning mazmuni, metodlari va usullarini aniqlash tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati** shundaki, tadqiqotda bayon etilgan ilmiy-falsafiy qoida, g'oya, nazariy qarash, mantiqiy xulosa, ob'ektiv va sub'ektiv mulohazalar, ma'naviyat va uning hozirgi zamon jamiyatida tutgan o'rnini tahlil qilishda, milliy tiklanish yoxud milliy uyg'onish jarayonlarini yanada chuqurroq o'rganishga hamda mustaqillikni ma'naviy jihatdan mustahqamlashga xizmat qiladi, jamiyatda yuz berayotgan erkin, turmish ijtimoiy voqea-hodisalarga, tarixiy jarayonlarga yangicha tafakkur asosida yondashish, mustaqil istiqbolini ilmiy jihatdan belgilash mezonini, milliy g'oya va milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirishda jiddiy ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, bizning xulosalardan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, akademik litsey va kollejlarda falsafa, ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat nazariyasi va tarixi milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar kabi fanlarni, o'qitishda, talabalar uchun uyushtiriladigan muloqot, davra suhbatlarida hamda yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma'naviy barkamol insonni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda, ommaviy axborot vositalari, targ'ibot va tashviqot ishlarida foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy qismi.**

Bitiruv malakaviy ish "Kirish", ikkita bob, to'rtta paragrafni o'z ichiga olgan, "Xulosa" hamda "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati"dan iborat. Matnning umumiy hajmi 88 betni tashkil etadi.

## **I-BOB. Mustaqillik: tarixiy ma'naviy qadriyatlarga yangicha munosabat.**

### **1.1. Milliy istiqlol va jamiyatning ma'naviy yangilanishi.**

Ma'naviy meros biror xalq, millat, uning vakillari tomonidan yaratilib, so'ng umuminsoniyatning ma'naviy boyligiga, merosiga aylanib qoladi. Markaziy Osiyo xalqlarining o'tmish avlodlari qoldirgan ma'naviy meros bunga misol bo'la oladi. Ma'naviy merosimiz jihatidan jahondagi oldingi o'rinlardan birini egallaymiz. Prezidentimiz Islom Karimov qayd etganidek, «Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayogan 20 mingdan ortiq qulyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, ahloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, ximiya, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin...»<sup>1</sup>. Bularning hammasi Turon zaminida yashagan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir, endi bu nodir ma'naviy merosimizni jiddiy o'rganish, xalqimizga etkazish davri keldi. Buning uchun barcha imkoniyatlar mustaqil davlatimiz tomonidan, bevosita Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan yaratib berilmoqda. Millatimizning siyosiy ahvoli o'tmishda juda achinarli bo'lgan, bunday ahvol Chor Rossiyasi O'rta Osiyoni bosib olgandan keyin vujudga keldi.

Milliy qadriyatlar – millat uchun muhim ahamiyat kasb etadigan, etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar shaklidir. Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Tarixiy ma'naviy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan o'zviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi tufayli tarixiy ma'naviy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Zero, tarixiy ma'naviy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini

---

<sup>1</sup> Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q - Toshkent: Sharq. 1998, 2-bet.

mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biri. Xalqimizning asrlardan-asrlarga meros tarzida kelayotgan tarixiy ma'naviy qadriyatlari o'zoq tarixiy jarayonda shakllangan. Ular ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi, boshqa xalqlarnikiga o'xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an'analar bilan tavsiflanadi.

Ma'lumki, qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi. Shu sababli ular mahalliy, tarixiy ma'naviy, mintaqaviy shakllar va umuminsoniy shakl mazmunda mavjud bo'ladi. Mahalliy qadriyatlarning eng etuklari va tarixiy ma'naviy manfaatlarga, moslari asta-sekin saralanib, umumtarixiy ma'naviy darajaga ko'tariladi. Tarixiy ma'naviy muhit qadriyatlarni yaratish va saralashning asosiy manbaidir: u tarixiy ma'naviy qadriyatlarning eng yaxshilarini voyaga etkazib, jahon miqyosiga olib chiqadi.

Milliy qadriyatlar quyidagilardan iborat:

1. Xalqimiz hayotida jamoa bo'lib yashash ruxining ustuvorligi.
2. Xalq ongida ustuvor bo'lgan fikr – do'st va yaxshi qo'shni bo'lib, tinchlik va totuvlikda, yaqindan hamkorlikda yashash.
3. Oila, mahalla, el – yurt, Vatan tushunchalarini muqaddas bilish.
4. Ota-ona, mahalla jamoalariga, rahbarlarga yuksak hurmat -e'tibor, butun jamiyatni xurmat qilish.
5. Millatning o'lmas ruxi, millat ma'naviyatining hayotbaxsh manbai sifatida ona tiliga muhabbat, uni sevish.
6. Kattalarga – hurmat-extirom, kichiklarga izzat, hurmat, degan e'tiqodga amal qilish.
7. Ayol zotiga ehtirom ya'ni, muhabbat, go'zallik va nafosat timsoli, abadiy hayot ramzi bo'lgan ayolni qadrlash.
8. Sabr-toqat, va mehnatsevarlik.
9. Xalollik, mehr-oqibat va xokazo.

Mustaqillik yillarida an'analarga aylanib borayotgan bayramlar ham mavjud:

1 yanvar – Yangi yil.

8 mart – Xalqaro xotin - qizlar kuni.

21 mart – Navro'z bayrami.

9 may – Xotira va qadrlash kuni.

31 avgust – Qatag'on qurbonlari shaxidlari kuni.

1 sentabr – Mustaqillik kuni.

1 oktabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuni.

8 dekabr – Konstitutsiya kuni.

«Ramazon xayit»i (IYD al-fitr).

«Qurbon xayit»i (IYD al – ADHA). O'rta Osiyo xalqlari tarixi bilan bog'liq milliy bayramlar ham bor: Mustaqillik bayrami, Navro'z, Mehrjon, Boychechak, Gul sayli va boshqalarni nishonlash an'anaga aylanib bormoqda.

Insonning qalbi va ongiga jo bo'lgan milliy ma'naviy-ahloqiy negizlar uni butun umri davomida halol, pok, bilimli, xalq xizmatida bo'lishga, Vatan ravnaki hamda taraqqiyoti hissa qo'shishga, o'zining ongli va erkin mushoxada qiluvchi shaxs sifatida kamol topishiga muttasil ravishda undaydi. Prezidentimi I.A.Karimov doimo ta'kidlab kelganidek: "...Bizning o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz esa, bunday ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini to'liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyondalari timsolida ma'rifat, ilmu fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o'zida uyg'unlashtirgan xalqimizning ma'naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanini isbotlab berishdan iboratdir. Bunday noyob va bebaxo boylikni har tomonlama chuqur o'rganish, uning ma'no-mazmunini farzandlarimshga etkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyolilarimiz, butun jamoatchiligimiz uchun ham qarz, ham farz bo'lishi shart, deb hisoblayman".<sup>1</sup>

Prezidentimiz I.A.Karimovning "...Bunday ezgu maqsadlarga esa, faqat yuksak ma'naviyat, o'zluksiz ma'naviy tarbiya orqaligina erishish mumkin" degan

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. - T., Ma'naviyat, 2008, 28-bet.

so'zlari ayni shu ma'noni anglatadi. Bu esa har birimizning farzandlarimiz, yosh avlodning ma'naviy-ahloqiy kamoloti, g'oyaviy chiniqishiga, har xil bo'zg'unchi g'oya va mafkuralarga qarshi murosasiz kurashchi ruhida tarbiyalashga mas'uliyat bilan yondashishga undaydi. Aynan farzandlarning kamoloti – ertangi kunda barchamizning tinch xayotimizni ta'minlaydi. Buning uchun ularni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, ularga xurlik, ozodlik, demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyat barpo etish erkin fuqarolik jamiyat asoslari haqida tushuncha berish barchamizning burchimizdir.<sup>1</sup>

Turli millatlar ma'naviyatining o'ziga xosligi kamalakdagi turli ranglar tovlanishiga monand bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi, boyitadi ammo imkor etmaydi, bir so'z bilan aytganda, ma'naviyat ellarni zidlashtirmaydi, balki birlashtiradi. Aslida umuminsomiy qadriyatlarni biror-bir alohida xalq yaratmaydi, bu qadriyatlarni har bir xalq, har bir elat o'z tarixiy tajribasi bilan asta-sekin shakllantirib boradi va o'zaro turlicha munosabatlar jarayonida elatlar, millatlar bir-birini tushunib, o'zaro ma'naviyatlaridagi umumiy jihatlarni tadrijiy anglab boradi.

Ming yillar davomida er yuzidagi turli mintaqalarda yashagan xalqlarning o'zaro siyosiy, madaniy, ijtimoiy aloqalari hozirdagidek yaqin bo'lgan emas. Asrlar mobaynida er yuzida turli madaniy mintaqalar shakllangan. Evropa xalqlarimining umummintaqqa madaniyati, janubi-sharqqa Osiyo xalqlari mintaqqa madaniyati, Xindistom yarimoroli va unga qo'shni xududlarda yaratilgan umumiy madaniyat va boshqa bir qator mintaqalar madaniyati - bularning har biri o'zgasidan farq qiluvchi qator diniy e'tiqod, falsafiy maktablar, san'at va adabiyot, urf-odat va an'analarning o'ziga xos uyg'un bir tizimlarini vujudga keltirganki, ahli basharning bunday bebaxo mulkini, ma'naviy xazinalarini befarqlik bilan bir-biriga qorishtirib yuborish mutlaqo ijobiy natijalar bermaydi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T., O'zbekiston, 2000, 34-bet

Butun dunyo xalqlari bir-birini tushunib yashashga intilmog'i lozim. Dushmanlik, g'ayr ko'zi bilan qarash emas, mexr bashariyatni birlashtiradi. Bu ulug' haqiqatni bizning ajdodlarimiz allaqachon anglab etganlar. Ammo o'zgani tushunish uchun, o'zgaga mehr ko'zi bilan boqish uchun, avvalo, inson o'zligini anglab etmog'i kerak. O'zligini anglamagan zot hech qachon o'zgani tushunmaydi, uni holis qabul qilmaydi. Asli milliy ma'naviyatimizga bugungi ayricha e'tibor ham ushbu o'zligimizni anglab etishga bo'lgan kuchli ehtiyoj natijasidir.

Biz milliy urf-odatlarimiz, marosimlarimizga baho bermoqchi bo'lsak, butun insoniyat manfaatlari nuqtai nazarini, alohida shaxs erkinligi, Vatan va millat manfaatlari, milliy qadriyatlarimiz majmuini yahlit uyg'unlikda olib qaramog'imiz talab etiladi. Agar shu uyg'unlikka mohiyatan muvofiq bo'lsa, yohud loaqal unga zid bo'lmasa, demak, maqbul, ammo insonlararo ziddiyat tug'dirsa, nifoq solsa, yoki o'zga shaxs erkini bug'sa, Vatan va millat manfaatlari zid bo'lsa, demak, maqbul emas. Ammo milliy ma'naviyatimizni qadrlashimiz, uni rivojlantirishga urinishimiz, kimlardir talqin qilmoqchi bo'layotganidek, o'zga xalqlar madaniyatini mensimaslik yoki milliy xudbinlikka berilishni anglatmaydi, balki o'zoq yillik qaramlik asoratidan qutulib o'zligimizga qaytish, o'zligimizni anglab etishga o'rinishni bildiradi. "Chunki har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi xayoti va taqdirini, o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi".<sup>1</sup>

Insonga faqat atrof-voqelik haqida, odobu ahloq qoidalari haqida bilim berishning o'zi uning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi uchun etarli bo'lmaydi. Unda iroda qudrati, mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, ko'nglida atrof-tabiatga, mehnat, kasbga, ilmga, o'zga insonlarga mehr uyg'otish, dilida ulug' maqsadlar tug'ilishiga erishish lozim. Masalan, tan olib aytish kerakki, Vatan yoki Adolat tuyg'usi haqida kitoblarda yozilganlarni o'qib chiqqan odam darhol Vatanning qadriga etadigan, yoki Adolatga hiyonat qilmaydigan bo'lib qoladi, deb tasavvur

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. . Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot – pirovard maqsadimiz. – T. O'zbekiston. 2000. 342-bet

qilish o'ta soddalik bo'lur edi. Har bir inson vatan, Millat, Adolat timsol tushunchalarining o'z ruhidagi poydor ma'naviy qadriyatlarga aylanishi uchun o'zgaralar ibratini sinashi, bu yo'lda riyozat chekishi, ularga nisbatan ko'nglida mehr uyg'onishi zarur. Bunga turli yo'llar, turli vositalar bilan, birinchi navbatda yosh avlod tarbiyasiga samimiy (chin ko'ngildan) va izchil yondoshuv, tinimsiz izlanishlar bilan erishiladi.

Har bir jamiyat a'zosining umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida o'zining ongu idrokiga, intellektual salohiyatiga, yaratuvchanlik kuchi, iste'dodi hamda qobiliyatiga ishonch uyg'otish, mustaqil fikrli erkin shaxs, har qanday bosim va hurujlarga qarshi kurasha olishga qodir inson qilib tarbiyalash mamlakat istiqlolining dastlabki kunlaridanoq muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Ta'kidlash joizki, 1990 yil 24 mart kuni Prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi ushbu maqsad yo'lida bosilgan sezilarli qadamlardan biri bo'ldi. Chunki yosh, mustaqil davlat – O'zbekiston oldidagi dolzarb muammolarni hal etishda Prezident lavozimi keng yo'l ochar edi. Respublika birinchi Prezidenti Islom Karimov o'z faoliyatining markazida xalqni ma'naviy boyitish va yuksaltirish, insonning ahloqiy va jismonan kamolotiga erishish ekanligini alohida ta'kidladi. Ma'naviyatni eski mafkura aqidalaridan xalos qilish, milliy tiklanish, milliy mafkurani shakllantirish va rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar ochildi. Zero, har qanday millatning ma'naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning birligidan tashkil topadi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan milliy qadriyatlarning tiklanishi, ularning jamiyat hayotiga singdirilishiga e'tibor berildi. Bizga ma'lumki, qadriyat kishilarning talab va ehtiyojlari asosida aql-zakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvurlari, tafakkurlari, orzu-istaklari, e'tiqodlari, ahloq qoidalarini o'zida mujassam etgan ma'naviy boylik hisoblanadi. Qadriyat tarbiyaning tayanch vositalaridan biri ekanligini e'tiborga olib, ta'lim-tarbiya tizimi shu asosda qayta ko'rib chiqildi. Shunisi diqqatga sazovorki, O'zbekiston kabi ko'p millatli, ko'p konfessiyali mamlakatda millatlararo ziddiyat, milliy va

diniy betoqatlik kabi noxush holatlar chetlab o'tildi va bugungi kunda bu borada amalga oshirilgan bir qator ishlar o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi".<sup>1</sup> Til millat ruxidir. Bu fikr otabobolarimiz, zamondoshlarimiz asarlarida ham ko'p ta'kidlanadi. Jumladan, "Milliy tilni yo'qotish millat ruxini yo'qotishdir", deydi jadidlar harakatining namoyandalaridan biri A.Avloniy. Barchamizga ma'lumki, sobiq sho'ro davrida davlat va jamiyat xayotining barcha jabhalari rus tilida olib borilar edi. Bir qancha qarshiliklarga qaramay 1989 yil 19 oktabr kuni o'zbek tili masalasi Oliy Kengash sessiyasi muhokamasiga qo'yilib, 21 oktabr kuni o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri tiklandi. Bugunda ona tilimizning qo'llanish doirasi yana ham kengaydi. Istiqlolning dastlabki yillaridanoq til va alifbo masalasi ko'plab muammolar kabi dolzarb vazifalar qatoriga qo'yildi. Islohotlarning davomi sifatida 1993 yil 2 sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ayni vaqtda jamiyatimizda til madaniyatini oshirish, sheva elementlarining qo'shib gapirilishini yo'qotish lozim. Alisher Navoiy ta'kidlaganidek: "Tilga etiborsiz – elga e'tiborsiz". Zero, vatanparvarlik tuyg'usi har kishiga xos bo'lishi lozim. Inson o'zlikni anglashi, nasl-nasabini chuqur bilgani sari unda vatanparvarlik tuyg'usi kengayib, kattalashib boradi. Kishi o'z tarixini anglasa, unda milliy g'urur oshadi, milliy g'urur milliy ruxni uyg'otadi. Ana shundagina inson chinakamiga vatanparvar bo'ladi. Istiqlolning ilk kunlaridanoq xalqning milliy ongini uyg'otishda vatanparvarlik tuyg'usi asosiy mezonlardan biri bo'lishiga e'tibor qaratildi. Vatanga muhabbat tuyg'usi siyosatimiz negiziga aylanib, milliy istiqlol mafkurasining muhim nazariy asosi bo'ldi. Islom Karimov o'z asarlarida vatan tuyg'usini yaxlit, bir butun holda, yagona o'zbek millati ruxi sifatida qaror toptirishga e'tibor qaratadi. Avvallari o'zi hatto O'zbekistonga

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. 83 bet.

kelmagan, bizning tariximiz va qadriyatlarimizga mutlaqo aloqasi bo'lmagan kimsalar nomi berilgan ko'chalarga ota-bobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o'z aksini topgan nomlar qaytadan berildi. Har bir xalq, ma'naviyatini shakllantirishda milliy urf-odatlar etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Shu ma'noda xalqimiz urf-odatlari va ularning negizidagi mehr-oqibat, insonparvarlik, tinchlik, do'stlik, tabiatga muhabbat, jamoaviylik kabi ibratli qadriyatlar hayotimizda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda hayotimizni o'zbekona urf-odatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Misol uchun, xashar odatini olaylik. Hozirda u o'zgacha bir ma'no-mazmun kasb etadi. Zero, har yili katta bayramlar arafasida o'tkaziladigan umumxalq xasharlari bugunda an'ana tusini olgan. Tarixdan ma'lumki, har qanday millat o'z milliy qadriyatlarini taraqqiyot rivojlari asosida rivojlantirib, takomillashtirib borar ekan, bu borada o'z tarixi va tarixiy xotirasiga tayanadi. Bu borada Islom Karimov "Millatni asrash kerak, millatnn asrash uchun esa unng haqiqiy tarixini o'rganish, avaylab himoyalash kerak", deb ta'kidlaydi. Tarixiy xotirani to'laqonli ravishda tiklash maqsadida 2000 yil Toshkent shahri Yunusobod tumanida Shaxidlar xotirasi xiyoboni va keyinchalik shu nomda mo'zey va jamg'arma tashkil etildi. 2001 yildan boshlab 31 avgust "Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni" sifatida nishonlanadigan bo'ldi. 2008 yil yoz oylarida ushbu mo'zey restavratsiya qilindi, ma'lumotlar va eksponatlar bazasi kengaytirildi. 9 mayning Xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlanishi ham tarixiy xotirani to'laqonli tiklash yo'lida jiddiy qadamlardan biri bo'ldi. Ma'naviyatga bo'lgan talab va ehtiyojlar hozirgi davrda O'zbekistonda kun sayin kuchayib bormoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki kelajakda buyuk davlat egasi bo'ladigan komil insonni tarbiyalamasdan, ma'naviy-ahloqiy barkamol qilmasdan turib, olga siljish mumkin emas. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning siyosiy madaniyati, ma'rifatliligi, qolaversa, xayotiyligi va qudrati uning umumbashariy qadriyatlar va xalqimiz ma'naviy-ruhiy ehtiyojlari bilan bog'liqligidadir. Zero, ma'naviy zamini mustahkam, asrlar mobaynida

shakllangan, ilg'or an'analar, taraqqiyotga xizmat qiladigan urf-odatlar va qadriyatlar asosiga qurilgan siyosatgina xayotiydir.

Hammamizga ma'lumki, inson tug'ilganidan tortib, vafotiga qadar o'zoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tadi. Bu yo'lda u yoshlik deb atalmish hayotning beboshlik davridan qariyalikning xo'zurli gashti, rohatigacha bo'lgan davrni boshidan o'tkazadi. Bu berilgan imkoniyatdan oqilona foydalanish har bir insonning hulqi, odobi, ahloqi, bir so'z bilan aytganda ma'naviy komillik darajasiga bog'likdir. Ma'naviy komil insonni shakllantirish o'ta murakkab jarayon bo'lib, u yosh insonning nozik qalbiga ta'lim-tarbiya berish orqali singdiriladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, inson qalbiga yo'l, eng avvalo, o'zluksiz ta'lim va maqsadli tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun ham qachon va qaerda bo'lmasin bu mavzu doirasida gap borsa, yosh avlodga ajdodlarimizning boy merosi va qadriyatlarini ta'lim-tarbiya bilan birgalikda singdirib kelayotgan o'qituvchi, murabbiylarimizning mashaqqatli mehnatini e'tirof etib, ofarinlar deymiz. Hozirgi kunda olib borilayotgan bozor iqtisodiyotiga o'tishdek murakkab islohotlar davrida yosh avlodni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda, ularning zimmasiga nechog'lik mas'uliyatli vazifalar yuklanayotganligini tasavvur qilish qiyin emas. Chunki aynan ular yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan globalizatsiya jarayonlarining milliy mentalitetimizga xavfli bo'lgan ko'rinishlaridan biz yoshlarni ogox etib, jonkuyarlik bilan to'g'ri yo'l ko'rsatmoqdalar. Shuning uchun ham mamlakatimiz rahbariyati tomonidan ularning mas'uliyatli mehnatlari munosib taqdirlanib, 1 oktabrning "O'qituvchilar va murabbiylar kuni" deb belgilanishi va bu kun umumxalq bayrami sifatida nishonlanishida chuqur ramziy ma'no bor. Bugungi kunda mamlakatimiz taraqqiyotining ertangi umidlari hisoblangan yosh avlodni to'g'ri tarbiyalab, ularda dunyoqarashni shakllantirish ishida kamarbasta insonlar, kasb egalari ham anchagina. Jumladan, endigina ulg'ayib kelayotgan avlodning murg'ak va ma'sum qalbini to'g'ri yo'lga solishda bolalar adabiyotining va bu sohada tinim bilmay ishlayotgan ijodkorlarning mehnatini eslab o'tishni joiz deb bilaman. Xalqimizning boy og'zaki ijodi,

“Alpomish” va “Guro’g’li” singari tarbiyaviy ahamiyati katta bo’lgan dostonlari yoki bolalar adabiyoti namoyandalarining asarlari turganda, yosh ukalarimiz, singillarimizning ommaviy madaniyat ta’sirida kirib kelgan chet el multfilmlarining ba’zi bir noo’rin lavhalarini xech tortinmasdan tomosha qilib o’tirishlari anchayin achinarli hol, albatta.

Yangi islohotlar olib borilayotgan va bu islohotlar zamirida qurilayotgan yangi jamiyatning ertangi umidi xisoblanmish yosh oilalarimizga ma’naviy va moddiy yordam ko’rsatishda mahallaning o’rni beqiyosdir. Chunki har bir oila va xonadonning dardu xasratidan, issiq-sovug’idan, avvalo, mahalla xabardor bo’ladi. Muxtoj oilalarga ma’naviy va moddiy yordamlar ko’rsatadi. Mahalla xududida olib boriladigan obodonlashtirish va ko’kalamzorlashtirish ishlari, xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri hisoblangan xashar yoshlar tarbiyasida alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, yigit va qizlarimizning mustaqil xayotga kirib borishi, yosh oilalarning jamiyatdan o’zlariga munosib o’rin topishlarida bu fidoiy va mexribon, jonkuyar odamlarnng qanchalik muhim rol o’ynayotganini hurmat bilan e’tirof etishimiz lozim. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan yana biri – jamiyatimizni ma’naviy yuksaltirish bilan bog’liq bo’lib, bu jarayonning o’ziga xos murakkab tomoni shundaki, bu yo’lda uchragan juda ko’p ijtimoiy muammolarni o’zimiz hal etishimizga to’g’ri kelmoqda. Aynan shu maqsad yo’lida mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq televidenie, radio, ommaviy axborot vositalari va badiiy asarlarga e’tibor kuchaytirildi. Chunki ular har bir xonadonga kirib boradi va insonlar qalbiga yo’l topadi. Bugungi kunda o’z hayotini mana shunday mas’uliyatli sohaga bag’ishlagan iste’dod egalari mamlakatimizda yangi jamiyatning ma’naviy asoslarini mustahkamlash, komil insonni tarbiyalashda o’zlarining munosib hissalarini qo’shib kelmoqdalar. Ayniqsa, bugunning dolzarb masalalaridan biri hisoblangan, ommaviy madaniyatning zararli ta’siridan yoshlarimizning ongu tafakkurini asrashda ilm-fan, madaniyat uchoqlari va ijod ahlining o’rni beqiyos. Ilm-fan maskanlari insonlarga fan doirasidagi ilmlarni berish bilan birgalikda ulardagi ma’naviy bo’shliqni ham to’ldirib boradi.

Insonlarni ma'naviy bo'shliqdan xalos etishning samarali yo'llaridan biri ularning ko'proq vaqtlarini madaniyat maskanlaridan hisoblanadigan teatrda o'tkazishlaridir. Chunki teatrda namoyish etiladigan sahna ko'rinishlarida jamiyatning ijtimoiy muammolarini jonli tarzda ko'rsatib, har bir tomoshabinning qalbiga yo'l topish mumkin. Teatrning xayotdagi ma'naviy o'rni nechog'lik yuksakligini Maxmudxo'ja Bexbudiy "Teatr – bu ibodatxonadur" deb izohlaganda aynan xaqiqatni aytgan edi.

Insonlarning ma'naviyatini yuksaltirishda asosiy omillardan yana biri, bu shubhasiz, kutubxonalar xisoblanadi. Kutubxonalarga borgan har bir o'quvchi o'zi hohlagan kitobini tezda topib, qulay va shinam o'quv xonalarida o'zlarini qiziqtirgan ma'lumotlarni o'rganib, salohiyatlarini oshirishlari mumkin.<sup>1</sup>

## **1.2. Milliy ma'naviy qadriyatlarning inson va jamiyat**

---

<sup>1</sup> O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganish bo'yicha materiallar, To'plam-3 -T.: "Fan" 2009.

## hayotidagi o'rne.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat engilmas kuch» asarining «**Ma'naviyat – insonning ulg'ayish va kuch-qudrat manbaidir**» deb nomlangan birinchi bobida asosiy e'tibor «ma'naviyat» tushunchasining mazmun-mohiyatiga qaratilib, uning inson va jamiyat faoliyatida namoyon bo'lishi, har bir xalq, millat va shaxsning xayoti bilan uyg'unligi haqida fikr yuritiladi. Prezidentimiz Islom Karimov ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezon hisoblangan ma'naviy meros, madaniy boylar, ko'hna tarixiy yodgorliklarning o'rne va ahamiyati haqida atroflicha to'xtaladi.

Shuningdek, ushbu bobda inson va jamiyat taraqqiyotining muhim omili – ma'naviy va moddiy hayot mushtarakligi, aynan ushbu tamoyillar bir-birini inkor etmasligi, aksincha, bir-birini to'ldirishi hamda mamlakatda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyotning mustahkam garovi bo'lib xizmat qilishi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Bu bobning «**Ma'naviyatni anglash**» deb nomlangan birinchi faslida Prezidentimiz Islom Karimov «ma'naviyat» tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: «**Ma'naviyat - insonni ruxan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir**»<sup>1</sup>. Ushbu ta'rifda insonning botiniy va zoxiriy tabiati, asl mohiyatini belgilovchi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va ahloqiy qarashlarning o'zaro mushtarakligi asoslab berilgan.

«Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch» asarida Er yuzida turli millatlar, xalqlar, davlatlar bo'lgani kabi, insonlarning tabiati va xususiyati ham turfa ekani, ularning bir-biridan farqli hayot tarzi, urf-odat va an'analari, madaniyati borligi va bularning barchasi yagona me'yor ma'naviyat bilan o'lchanishi xayotiy misollar orqali tahlil etilgan.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. 19-bet.

Prezidentimiz Islom Karimov ma'naviyat haqida fikr yuritir ekan, bu masalani chuqur tahlil etgan, uning ijobiy tomonlari bilan cheklanib qolmasdan, murakkab jihatlarini ham nazardan chetda qoldirmagan. Bu dunyoda hayot bor ekan, turfa xil odamlar, ularning ongu tafakkuridagi o'zaro tafovut va ziddiyatlar saqlanib qolaverishi, turli dunyoqarashlar, oqim va yo'nalishlar mavjudligini tabiiy hol, deb qabul qilish zarurligini atroflicha asoslab bergan.

Prezidentimiz Islom Karimov qariyb 150 yil davom etgan mustamlakachilik va mustabid to'zum davrida toptalgan ma'naviy-ma'rifiy merosimiz. Milliy qadriyatlarimizni tiklash hamda ularni zamon talablarn asosida rivojlantirish o'ta muhim xayotiy zaruratga aylangani, istiqlol yillarida bu masala amalga oshirilgan tub islohotlarning negizini tashkil qilganini alohida ta'kidlaydi.

Asarda barcha davrlarda, har qanday bosqin va istilolarga qaramasdan otobobolarimiz og'ir va murakkab sharoitlarda o'zligini yo'qotmasdan, ma'naviy xayot mezonlari, ahloq-odob qoidalariga amal qilib, komillik sari intilib yashagani va muvaffaqiyatga erishgani alohida qayd etilgan. Asarda ta'kidlanganidek, zo'ravon va tajovo'zkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, buysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga uringan. Bu tarixiy haqiqatni anglash, milliy ma'naviyatning jamiyatdagi o'rniga yuksak baxo berish imkonini yaratadi.

Xalq milliy ma'naviyati aslini qadriyatlar tashkil etadi. «Milliy ma'naviy qadriyatlar» deganda: Muayyan millat, shu millat vakillari uchun zarur va ahamiyatli, aziz va ardoqli bo'lgan manfaati va maqsadlariga xizmat qiladigan ma'naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, g'oyalar va me'yorlar nazarda tutiladi.

Har bir xalqning o'zi uchun ezozli, qimmatli bo'lgan ma'naviy boyliklari bo'ladi. Bular asrlar davomida avlod-dan-avlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham ahamiyati va qadri yo'qolmagan, shu xalqning iftixor manbaiga aylangan durdonalardir.

Millat va elatlarning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va azabiyoti bilan ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va ahloqiy fazilatlari ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o'ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi.

Milliy ma'naviy qadriyatlarda xalqning dunyoqarashi va xayotga munosabati, ichki tabiati va turmush tarzi o'z ifodasini topadi. Bularda millatning ruxiy odami va tafakkur tarzi, orzu-umidlari va ideallari, vijdoni va or-nomusi aks etadi.

Milliy qadriyatlar xalqning kundalik xayoti va turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli xodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasm-rusumlarga baxo beriladi. Yosh avlodning xayotiy mo'ljallari, «zamona kahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma'naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ijobiy ahloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to'g'anoq bo'ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy xayotining va ma'naviy borlig'imizning muhim va serqirra sohasi bo'lib, inson va jamiyat kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar muttasil rivojlanib, takomillashib boradi. Bularning ijtimoiy guruhlar va alohida shaxslar tomonidan o'zlashtirilishi ta'lim va tarbiyani talab qiladi.

Ma'naviyat mustaqillikning eng muhim shartlaridan biridir. Chunki, ma'naviyat bo'lmasa mustaqillik ham, taraqqiyot ham, baxt-saodat ham, iymon-e'tiqod ham, elda diyonatu adolat ham, xullas, odamlarda Vatan va erk tuyg'usi ham bo'lmaydi. **«Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, olamning ichki dunyosi, irodasiii baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir».** Ma'naviyatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri albatta, milliy qadriyatlarimiz hisoblanadi. Qadriyatlar yuqorida

ta'kidlaganimizdek, o'tmish bilan hozirgi kun o'rtasidagi vorisiylikni ta'minlaydi. Milliy qadriyatlarimizni asliga keltirish va rivojlantirishda xalqimizning ko'p asrlik an'analari, madaniyati, urf-odatlarini, har xil bayramlari, boy qadimiy merosi o'zining alohida o'rni va ahamiyatiga ega. Madaniy-ma'naviy merosimiz, asriy an'analar o'tmishdan, avlod-ajdodlarimizdan bizlarga etib kelgan, bugungi xayotimiz uchun xizmat qilayotgan eng katta ma'naviy boylik, buyuk xazinadir. **«Bu xazina nnsonga hayotda barqarorlik bag'ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik ortirtsh yo'lida kun ko'rishga yo'l qo'ymaydi, fojealar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustaxkamlaydn».** Xalqimiz madaniy merosi, an'anazari, urf-odatlarini bizlar uchun fakat o'tmishdan kolib kelayotgan yodgorlikkina emas, barcha ma'naviy boyliklarning tarkibiy kismi, inson akl-idroki va tafakkurning buyuk yutug'i hamdir. Daraxt o'z ildizlari bilan zamindan suv, ozik-ovkat olib voyaga etganidek, inson ham avlod-ajdodlaridan qolib kelayotgan bebaho boyliklardan ruhiy oziq, kuch-quvvat olachi, ularga tayanadi. Har bir millat va elat ajdodlarini bilim boyliklaridan, tajriba va tarixiy saboqlaridan, odob-axloq, ta'lim-tarbiyaga oid o'g'itlari va yo'l-yo'riqlaridan foydalanadi, bularsiz yashay olmaydi.

O'tmishga, madaniy merosga hurmat- bu, birinchi galda uning yaratuvchisi, ko'z qorachigidek avaylab-asrovchi va rivojlantiruvchisi bo'lgan xalq ommasiga ko'rsatilgan izzat-ikrom, mehr-oqibatdir. O'zining o'tmish tarixiga madaniyatiga, tarixiy merosiga, milliy an'analariga katta e'tibor va hurmat bilan karaydigan xalqning istiqboli porlok bo'ladi. O'tmishdoshlarimizga bizlar kandy munosabatda bo'lsak, nasl-nasabimiz ham bizlarga xuddi shunday javob kaytarishadi. O'tmishimizni qanchalik yaxshi bilsak va e'zozlasak, hozirgi davrni, mustaqilligimiz istiqboli va ahamiyatini shunchalik chuqur va mukammal tushunamiz.

Xalqimizning madaniy-ma'naviy boyliklari va milliy qadriyatlarini to'la, odilona egallash va rivojlantirish hozirgi avlodlarning vazifasidir. Gap o'tmish

madaniy-ma'naviy boyliklariga ega bo'lishdagina emas, balki uni chuqur egallab, yangi, yuksak boskichga ko'tara bilishdadir.

O'zbek xalqida dunyo tan berib kelayotgan ajoyib insonni fazilatlar, nodir urf-odatlar mavjud. Oila a'zolarining barchasi to'planmaguncha ovqat emay turish, oila boshlig'ini odob saqlab kutish, ota-onani o'rnidan turib kutib olish, ularga har doim iltifot ko'rsatish, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr-shafqat, ypyg'-ajdodlarga, qo'ni-qo'shnilarga, xesh-aqrobalarga, maxalladoshlarga, tanish-bilishlarga yordamni ayamaslik va boshqalar bunga misol bo'ladi.

Birovlar bilan muomalada odob-axloq qoidalariga katiy amal qilish, o'zidan kattalar, yoshi ulug'lar bilan xayyo, odob-andisha asosida so'zlashish, ularga nojoiz so'zlarni aytmaslik, betgachoparlik qilmaslik, odob-axloq, andishani qo'ldan bermaslik bularning hammasi xalqimizda chinakam lutfu nazokat hisoblanadi va yuksak darajada ezozlanadi.

O'zidan kattalarni, birinchi galda keksa bobolaru-otalarni, nuroniy onalari-buvilarni hurmat qilish, e'zozlash, ular uchun qo'ldan kelgan yordamni ayamaslik o'zbek xalqiniig an'anaviy qoidasi bo'lib, ular o'zbek oilalarida yoshlikdan bolalar ongiga, qon-qoniga, vujud-vujudiga chuqur singdirib yuboriladi, ota-bobolarimiz an'analariga ko'ra, yoshlar o'zidan kattalarni ko'rganda tanish-tanimasligidan, millati va jinsidan qat'iy nazar salom berishlari, yo'lda ro'baru kelganda birinchi bo'lib o'tkazib yuborishlari, ular bilan samimiy munosabatda bo'lishlari, iltifotlarini ayamasliklari lozim. O'zbek oilazarida o'tadigan bironta ham marosim, to'y-tomosh, xashar keksalarning maslaxatisiz va ishtirokisiz o'tmaydi. Keksalarning turmush tajribalari, bilim boyliklari, bosib o'tgan yo'llari, yo'l-yo'riqlari, maslahatlari, saboqlari yoshlar uchun eng katta boylik, bitmas-tuganmas xazinalar konidir. Keksasi bo'lgan xonadonda fayz-baraka bo'ladi, degan mazmunda aytilgan qanchadan-qancha matallar, maqollar, afsonayu rivoyatlarimiz borligini aytib o'tirmasak bo'ladi.

O'zbek xalqining eng qadimiy davrlardan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan ajoyib qadriyatlardan

yana biri ota-onani yuksak darajada e'zozlash, izzat-ikromlari, hurmatlarini joyiga qo'yishdan iboratdir. Farzand uchun dunyoda ota-onadan ko'ra mehribon, aziz va mo'ttabar zot yo'q. Ota-ona farzandlarning suyanchig'i, bitmas-tuganmas boyligidir. Hech ikkilanmasdan shuni aytish kerakki, ota-ona farzand uchun hech narsani ayamaydi. Ularning tabiat ato etgan buyukliklari ham ana shunda. O'zbek xalqi odob-ahloqi bo'yicha, keksalarning, ota-onaning oldidan salom bermasdan o'tishi gunox hisoblanadi. Bundaylarni el-yurt la'natlaydi. Shunday bular ekan, ota-onani qadrlash, ularning beo'lchov xizmatiga bir umr sodik bo'lish, duolarini olish bolalarning farzandlik burchidir. Bu milliy qadriyatlarimizning eng muhim talablaridan biridir.

Mustaqillikning o'tgan yigirma uch yili davomida ijtimoiy xayotimizda ko'pgina yutuqlar qo'lga kiritildi. Ana shunday yutuqlarimizdan biri milliy-ma'naviy qadriyatlarimizning tiklanganligi hamda demokratik taraqqiyot yo'lining tanlab olganligi bo'ldi. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda: "Erkin ijod uchun milliy qadriyatlarimiz va boy ma'naviyatimizni, xalqimiz tarixini, uning bugungi sermazmun xayotini to'laqonli va haqqoniy aks ettirish uchun zarur sharoitlar yaratildi". Bunday yutuqlar esa, mustaqillikni yanada mustaxkamlab, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar safidan joy olishimiz uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlar millatniig hamda xalqning ma'naviy borligini ifoda qiluvchi, uning o'ziga xos jihatlarini namoyon etib turuvchi noyob xodisa hisoblanadi. Shuni alohida e'tirof etish kerakki, milliy qadriyatlar, millatniig qobig'iga uralib qolgan, yangilikka qarshilik qiluvchi xodisa emas. Aksincha, demokratik taraqqiyotda uning o'ziga xos milliy modellari mavjudligini tasdiqlab, kafolatlanturadigan ma'naviy poydevordir.

Har bir mamlakatda har bir millatniig asrlar osha avloddan-avlodga o'tib, sayqallanib kelayotgan o'z qadriyatlari bo'lib, ushbu qadriyatlar asosida millat qadrlanadi hamda obro'-e'tiborga ega bo'ladi. Qadriyatlarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va roli alohida ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlarga

hurmatsezlik, uning qadr-qimmatini bilmaslik nimalarga olib kelishi esa yaqin o'tmish tariximizdan bizga ayondir. Ammo, Millat ruxi singan, bobolar qalb qurining mevasi bo'lgan buyuk ne'matning oeq osti bo'lishi xech kechirib bo'lmaydigan xodisadir. Hech bir jamiyatda odamlar ongiga ma'naviy, ahloqiy qadriyatlarni singdirmasdan turib taraqqiyot bosqichiga erishib bo'lmaydi. Ayniqsa, Sharq xalqlarining ming yillik milliy qadriyatlari o'sha xalq uchun qadr-qimmatga molik manaviyat manbai bo'lib xizmat qilib kelgan.

O'zbek xalqi yaqin-yaqingacha davom etgan kuchli mafkuraviy tazyiqlarga qaramay, avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Ayniqsa istiqlol yillarida milliy qadriyatlarimiz qayta tiklandi va ijtimoy hayotga tadbiq etildi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek,- "Udumlarimiz, qadriyatlarimizga qaytdik. Yurtimizga Navro'z kirib keldi. Ramazon, Qurbon xayitlariga etdik"...

Milliy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biridir. Xalqimizning asrlar davonidan oshib, meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlari o'zoq tarixiy jarayonda shakllanib o'zining rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Ularning o'tmishi uch ming yildan kam bo'lmagan davrni o'zida mujassamlashtirgan. Milliy qadriyatlarimizning o'ziga xos ustuvor jihatlari: tug'ilgan makon va ona yurtga ehtrom, milliy urf-odat va avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomalada mulozamat, xayo, andisha hamda bag'rikenglik, kechiruvchanlik kabi xolatlarda namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlarimiz tarkibida jahondagi boshqa xalqlarnikiga mutlaqo o'xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an'analar mavjud bo'lib, ular millatimizga xos ko'rinishlarga egadir. Milliy qadriyatlarimizning o'ziga xosligi haqida juda ko'p gapirish mumkin. Lekin, biz asosiy masala, milliy qadriyatlarning jamiyat, millat, fuqarolarning ma'naviy yuksalishi hamda demokratik jamiyat barpo etishdagi ahamiyati, diniy qadriyatlar bilan uyg'unlashib ketganligi haqidagi fikrlarni e'tirof etsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda milliy qadriyatlar bilan bir qatorda, diniy qadriyatlarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, milliy hamda diniy qadriyat o'rtasida qat'iy chegara yo'q. Ular doimiy ravishda o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi va bir-biri bilan muloqotda, birgalikda faoliyat ko'rsatadi. Milliy va diniy qadriyatlar mutelikdan, fikr qaramligidan qutilish, milliy o'zlikni anglashiga xizmat qilishi bilan jamiyatda demokratik umumbashariy tamoyillarning qaror topishiga zamii yaratadi. O'zbekistan Respublikasi o'ziga xos va o'ziga mos demokratik taraqqiyot yo'lidan bormoqda. O'zining buyuk kelajagi, obro'i e'tibori ham ko'p jihatdan ana shu taraqqiyot yo'lini to'g'ri tanlaganligidan, demokratik islohotlarning xalq manfaatiga mos kelishi bilan belgilanadi.

Mustabid to'zim xukmronligi davrida milliylikka e'tibor kamaydi, din esa butkul tugatilishi zarur degan g'oya va qarashlarga asoslandi. Milliy va diniy qadriyatlarimiz esa ana shu g'oya va qarashlarning ta'siridan xalos bo'la olmadi. Lekin, tazyiqlarga qaramasdan irodali xalqimiz asrlar mobaynida o'z ma'naviyatini, tarixiy qadriyatlarini avaylab asrab keldi va ularga sodiq bo'lib qoldi. O'zbek xalqi hamma vaqt o'z kuchiga, o'z imkoniyatiga tayangan. Pok niyatlariga putr etkazmagan holda o'z faoliyatlarini tashkil qilgan. Shu sababli ham har doim diniy va milliy qadriyatlarimiz ana shu matonatli xalqqa ruxiy quvvat bo'lib kelgan.

Milliy qadriyatlar mutelikdan tobelikdan qutilish, milliy o'zlikni anglash orqali ma'naviy poklanish va ma'rifiy yuksalishga qarab yo'l tutishga da'vat etadi. Milliy qadriyatlarning yana bir muhim jihati shundan iboratki, u har bir insonni yuksak ijtimoiy maqsadlarga chorlaydi, ularda mustahkam ishonch uyg'otadi. Shuningdek, har bir fuqaroning oila, millat, jamiyat va mamlakat oldidagi mas'uliyatlarini chuqur anglashga, vijdonli bo'lishga chaqiradi va ichki, ruxiy olamining yuksalishiga xizmat qiladi. Insonni imon-e'tiqodli, insof-diyonatli, adolatparvar hamda yurtiga, xalqiga sadoqatli bo'lishga undaydi.

Milliy qadriyatlar namoyon bo'lishi hamda tarixiy taraqqiyot bosqichi jarayonida quyidagi ayrim o'ziga xos xususiyatlarni mujassamlashtiradi.

-Milliy qadriyatlar, ma'lum bir etnik makonda shakllanib, turli ko'rinishda namoyon bo'ladi va ana shu etnik makonda yashovchi kishilarning ongiga hamda turmush tarziga o'ziga xos tarzda ta'sir etadi;

-Milliy qadriyatlar, bir millatga mansub bo'lgan kishilarning ijtimoiy munosabatlarida ko'zga tashlanadi va ular ana shu munosabatlarning natijasi o'laroq, o'z maqsad-muddaolariga erishadi;

-Milliy qadriyatlar, ijtimoiy rivojlanish jarayonlarida o'zgarib, jamoaning manfaatlariga mos holda yangilanib, takomillashadi va kelgusi avlodlarga meros bo'lib qoladi;

-Milliy kadriyaglar, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa sohalarda erishilgan muayyan natijalarning manbai sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin;

-Milliy qadriyatlar, mazkur milatning ruxiyatini o'zida mujassamlashtirgan holda, boshqa millat vakillarida mavjud bo'lmagan ichki botiniy his-tuyg'ularni ham o'zida aks ettiradi;

Shuningdek, milliy qadriyatlarimizning mazmun-moxiyatini millatning tabiiy betakrorligi, milliy xududiy jihatdan ajralib turishi, ma'naviy merosi, urf-odatlar, ananalari, marosimlari, turmush tarzi, milliy tili, milliy ong, milliy rux va milliy xis-tuyg'ulari, boshqa xalqlarnikiga o'xshamaydigan qirralari va boshqa turli-tuman o'ziga xos xususiyatlar tashkil etadi.

Milliy qadriyatlar millatni o'zi bilan birga tarix silsilalari, zamona zayllari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar orasidan o'tmishdan kelajakka tomon o'tib keladi. Ular tabiatiga ko'ra, faqat tor doirada saqlanib qolmaydi, balki ravnaq topib, turmush jarayonlarida muttasil ravishda zamonga mos holda yangilanib, hamda takomillashib boradi.

Xulosa qilib aytganda milliy qadriyatlar mazkur millatni yuzi, qalb shuuridir. Shunday ekan millatimiz va xalqimizning yuzi yorug', qalb quri obod bo'lishi uchun mamlakatimizning barcha fuqarolari birjonu birtan bo'lib

fidokorona mehnat qilishlari hamda musaqillikni oliy qadriyat sifatida mustaxkamlashdek ezgu, amallarni sidqidildan bajarishlari kerak.

Fuqarolaridagi go'zal ahloqiy fazilatlar hamda yuksak ma'naviyat, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy qadriyatlarning takomillashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Inson – tabiat hamda jamiyat bilan o'zaro munosabatda bo'lib o'z iqtidoriga tayangan holda milliy qadriyatlarini boyitadi. Ajdodlari tomonidan yaratilgan boy tarixiy madaniy qadriyatlarga vorislik qiladi. Ulardan millatniig qadr-qimmatini oshirish, o'zlikni chuqur his etishdik buyuk maqsadlarda unumli foydalanadi.

Bugun davlatimizning qisqa muddat ichida ulkan yutuqlarga erishib, jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga tobora yaqinlashib borayotganligini yurtimizda muxtaram yurtboshimiz Islom Karimov tomonlaridan ochib borilayotgan islohotlarida xalqimizning eski milliy urf-odat va an'alarini yo'qotmagan holda ma'rifiy siyosat olib borilayotganini isbotlab turibdi. Ha, Serquyosh zaminimiz xalqi mustaqilikka erishgandan so'ng o'z haq-huquqi, erki, ozodligi va xur fikrlikka ega bo'ldi. Shuningdek, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan qadimiy va tarixiy urf-odatlarimiz, ananalarimiz, qadriyatlarimiz tiklandi.

Albatta bunday islohotlarning bosh omili inson shaxsining yuksak darajada e'tirof etilganligidan dalolat beradi. Inson har tomonlama madaniyatli, ma'naviyatli, ma'rifatli bo'lsa, jamiyat shunchalik taraqqiy topadi. Ana shu jamiyatning yuksalishini bosh maqsad qilgan hukumatimiz urf-odat, qadriyat va ananalar inson kamolining bosh mezonligiga katta e'tibor qaratishgan. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq Prezident Islom Karimov odamlar ongi va tafakkurida o'zgarish yasash asosida O'zbekistonni rivojlantirishning zamirida:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- vatanparvarlik;
- birdamlik;
- hamjihatlik;

-xalqimizning ma'naviy merosini asrab-avaylash;

-insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi kabi fazilatlarni mujassamlashtirdi.

Og'ir mustabid to'zumdan chiqqan xalqning dunyoqarashi, yashash tarzi, tashqi va ichki voqea-xodisalarga munosabati, ma'naviy-ruhiy ehtiyojlaridan kelib chiqib faoliyat yuritishiga ahamiyat qaratdi. Agarda xalqning dunyoqarashi hisobga olinmasa, ehtiyojlari o'rganilmasa, jamiyat taraqqiyoti o'rniga aksincha, tanazzulga yuz tutadi. Shu sababli ham yurtboshimiz I.Karimov o'z mamlakati istiqboli haqida fikr yuritarkan: "Mustaqil O'zbekistonni kuch-qudrat manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidadir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar bo'yi avaylab-asrab kelmoqda. O'zbekistonning yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur bo'lgan shart-sharoit yaratishdir"-degan edi. Xa, davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek mamlakatning kuch-qudratini xalqning yuksak ma'naviy kamoloti belgilaydi.

Shunday ekan insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ularni asrab-avaylash bilan birga yangi zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borish-taraqqiyot mezonini, milliy ravnaq asosi. Bunday ruxiyatdagi odam hech qachon bировga tazyiq qilmaydi, shavqatsizlik va zo'ravonlik kabi g'ayriinsoniy illatlarga hamisha nafrat bilan qaraydi. O'z tabiatiga mos ravishda bag'rikeng va muruvvatli bo'ladi.

Umuman olganda, bugun Prezident Islom Karimov yuksak marifiy-madaniy jamiyat qurish, har tomonlama barkamol jamiyatni shakllantirish siyosatini oqilona yurgizmoqda. Ha, O'zbekiston hukumati ommaning aqliy imkoniyatlarini kengaytirish va ma'naviy etukligini ta'minlash asosida mustaqillikning insonparvarlik mazmunini chuqurlashtirish hamda uning jamiyatning mustaxkam poydevori bo'lib xizmat qilishiga katga umid bog'lagani oqilona siyosatdan

dalolatdir. Masalan, fan-texnika, san'at va madaniyatga xomiylik qiluvchi "Oltin meros", yosh iqtidorli ijodkorlarga, olimlarga va tadqiqotchilarga ko'maklashuvchi, umuman yoshlar muammolari bilan shug'ullanuvchi "Kamolot" jamg'armasi, "Fond forum", "Mehr nuri" jamg'armalari tashkil etilgan. Ular xalqimizning milliy urf-odat, an'analari mujassam bo'lgan tadbirlarni keng o'tkazishmoqda.

Shuningdek, bugungi zamonaviy bunyodkorlik ishlari ham aynan milliy an'analar uyg'unligida qad ko'tarmoqda. Bu esa, yurtimizga tashrif buyurayotgan xorijlik mexmonlar va mutaxassislar e'tiborini yanada tortmoqda. Eng muhimi, mutsaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, tarixiy yodgorliklar va qadamjolarni kayta ta'mirlab obod qilish, buyuk ajdodlarimiz nomini va qadimiy bayramlarimizni tiklashga katta e'tibor qaratilgandir. Shuningdek, bugun butun dunyo an'ana va qadriyatlarimiz jo bo'lgan milliy kurashimizni ham qabul qildi.

Qartiyalar inson xayotida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ularning moxiyatini bilish, e'tiqod qilish, ixlos qo'yish, yoshlarda milliy g'urur, vatanparvarlik, birdamlik, hamjihatlik tuyg'usini shakllantiradi, insonparvarlik, xalollik, mehnatsevarlik hissini uyg'otadi, ahloqiy poklik fazilatlarini kamol toptiradi. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgan sharoitda vatanparvarlik tarbiyasi juda katta ahamiyatga egadir. Xalqimizda mahallada, oilada, jamoatchilik o'rtasida bola tarbiyasini amalga oshirishda katta tajriba bor. Bu asrlar davomida sinovdan o'tib milliy qadriyatga aylanib ketgan. Bu qadriyatlar bolalarda mehnatsevarlik, xalollik, ota-onani va kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish kabi xislatlarni tarbiyalaydi.

Milliy pedagogikaning bu boradagi merosi ham buyuk qadriyatlardir. Shu boisdai ham o'zbek xalqi o'zining tarbiyasi, kattalarga hurmat e'tibori, kamtarligi, andishaligi bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda dolzarb masalalardan biri – ekologik madaniyatni shakllantirishdir. Bunda ham milliy an'analarga oid qadriyatlarni ahamiyati nixoyatda kattadir.

O'zbek oilalarida bolalar yoshligidanoq ko'cha supirish, xovli tozalash, suv sepish, daraxt ekish va parvarish qilishga o'rgatiladi. Suvni iflos qilmaslik, axlatni har joyga tashlamaslik ham milliy qadriyatga aylanib ketgan. Ekologik vaziyat ancha murakkab bo'lgan hozirgi sharoitda bu qadriyatlarning o'rni muhim. Muhtaram yurtboshimiz yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor berib, ular uchun katga imkoniyatlar yaratmoqdalar. Yoshlar iqtidorini yuzaga chiqarish, vatanga mard, fidoiy insonlarni tarbiyalab berish, milliy qadriyatlarimizni asosidir.

Har bir davlatning bor chiroyi, ma'naviyati yuksakligi, go'zalligi uning san'ati, milliy urf-odatlari va boqiy an'analarida namoyon bo'ladi. Shubhasiz, o'zbek xalqi o'zining asriy an'analari, betakror madaniyati bilan azal-azaldan butun dunyo e'tiborini qozonib kelmoqda. Qadimdan o'zining bag'rikenglik, mehmondo'stlik, mehr-shafqatlilik fazilatlarini bilan shuxrat qozongan xalqimiz mustaqillikka erishgunga qadar ne-ne qiyinchiliklarni, mashaqqatlarni boshdan o'tkazmadi. Barchasini o'zining chidam va bardoshi bilai, jasorat va erkparvarligi bilan engib o'tib, tarixiy an'analarini o'zida mujassamlashtirgan holda mustaqil davlat barpo etishga muvaffaq bo'ldilar. Albatta, xalqni bunday mushkul ahvoldan saqlab qolish va mustaqil vatanni shakllantirishda prezidentimiz Islom Karimovniig ma'rifatparvarligi, fidoyiligi tahsinga sazovor.

Bugungi kunda xayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi islohotlarning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganishni, boqiy an'ana hamda urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksatishi bilan o'zviy bog'liq.<sup>1</sup>

Darhaqiqat, mamlakatimiz rahbarining yuqoridagi jummalari mamlakatimiz hayotida g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Istiqlol yillarida o'z haq-huquqini taniydigan, tevarak-atrofida sodir bo'layotgan voqea va xodisalarga teran, mustaqil fikr bildira oladigan, ijtimoiy xayotda yuzaga keladigan har qanday muammolarni

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2009 – B.141

tubdan idrok etib, ularni bartaraf etishga qodir shaxslarni tarbiyalash, ma'naviyatli insonlarni voyaga etkazishni ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Har qaysi millatniig ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos xayotiy qadriyatlari, marosimlari, urf-odatlarisiz tasavvur etish mushkul. Jamiyatni ma'naviy yuksaltirish va milliy o'zlikni anglashda urf-odat va qadriyat, an'analarning, shuningdek, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna yodgorliklar etakchi omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Diyorimizda o'nib-o'sib, voyaga etayotgan har bir yosh avlod qadimiy va navqiron yurtimizning tarixi, xalqaro davlatlar tomonidan e'tirof etib kelinayotgan buyuk madaniyatini o'rganib, chuqur anglamog'i, shu vatanda tug'ilib kamolga etgan ulug' allomalarimiz, ajdodlarimizga munosib voris bo'lib shakllanmog'imiz darkor.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng asriy an'alarimizni targ'ib etish, o'zbek milliy madaniyati va san'atini jahon hamjamiyatiga namoyish etish maqsadida yurtimizda tashkil etib kelinayotgan ko'plab tadbirlar, xalqaro nufo'zga ega bo'lgan festivallar, san'at xaftaliklari, ko'rgazmalar yoshlar ongida ma'naviy savodxonlikni oshirish, millatimizning ko'hna qadriyatlarini zamonaviy ruxda shakllantirishga katta hissa qo'shib kelayotganini alohida e'tirof etish lozim deb hisoblayman.

Mana bir necha yillardan beri, "O'zbekiegon madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasi tomonidan mamlakatimiz asriy an'alarini, betakror san'atini nafaqat xalqimiz, balki butun jahonga ko'rsatishni asosiy maqsad qilib olgan qator loyihalar, jumladan "Asrlar sadosi", "Bazaar-Art" "Theatre.UZ" xalqaro teatr festivali, "Oltin Gepard" Toshkent xalqaro kinoforumi, Toshkent zamonaviy san'at xalqaro biennalesi kabi yirik tadbir, festivallar o'zining keng qamrovi, milliy ruxdagi rang-barang jilosi bilan barchani xayratga solib kelmoqda, desam mubolag'a bo'lmaydi. O'zida ezgu an'analarni shakllantirgan, xalqimiz va dunyo axolisi e'tiborini tortib kelayotgan bu kabi festivallarning tobora nufo'zi ortib,

jahon hamjamiyatining qiziqishi va tahsiniga sazovor bo'layotgani e'tirofga loyiqdir.

Millatni o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, xech shubxasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk xayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning harakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy nizom va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mexr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.

Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash, har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi.

Chindan ham, o'zbek milliy qadriyatlari va an'alarini farzdanlar qalbida, tafakkurida singdirishda muqaddas dargox hisoblanmish-oila birinchi maktab hisoblanadi. Har bir oilaning o'z qadriyatlari, marosimlari, qonun-qoidalari mavjud bo'lib, unda asosiy vazifa har tomonlama kuchli, barkamol avlodni kamolga etkazishdir. Biz, mustaqil yurt farzandlari, ozod va obod diyorumizning asriy an'analari va urf-odatlariga sodiq qolgan holatda mamlakatimiz ravnaqi va rivojlanishi yo'lida ildam qadamlar bilan harakatda bo'lishimiz, bizdan keyingi avlodlarga ham milliy qadriyatlari-mizni sofligicha etkazib berishimiz darkor.

Qo'ni-qo'shnilik munosabatlari o'zoq tarixga ega bo'lib, asrlar davomida bu borada muayyan qadriyatlar shakllangan. Jahon tarixining oxirgi bir necha asrida hukmron bo'lgan begonalashuv jarayoni bu sohaga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Ayrim erlarda qo'shnilarga mutlaqo befarqlik yuzaga kelgan. Bunday holatning oldini olish muhim.

O'zbek xalqining qadriyatlari tizimida qo'shnilarga munosabat katta o'rin egallaydi. Xalq yaratgan maqol va matallar (mas. «Yon qo'shni – jon qo'shni»,

«O'zoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni afzal», «Xovli olma – qo'shni ol» va hk) uning bu masalada o'ziga xos falsafasi borlig'idan dalolat beradi.

Yaxshi qo'shnicilik munosabatlari bo'zilgan, arziyas sabab bilan qo'shnilar yuz ko'rmas bo'lgan xollarda qanchalar teran milliy qadriyat oyoq osti bo'lganligi, bag'rikenglik va murosa tamoyili lat eganligi ayon bo'ladi.

Keksalarga hurmat – inson xayotiy tajribasi davomida shakllangan qadriyat. Jonli tabiatda hayot uchun kurash qonuniyati mavjud. Nasl qoldirish, yangi avlodga mehr qo'yish, uni oyoqqa turg'azguncha jon fido qilish xollari aksariyat xayvonlarda ko'zatiladi. Ammo, qariyalarni e'zozlash, keksalarga ehtirom, mehr-muruvvat ko'rsatish-insoniy fazilatdir. Bularsiz milliy ahloq-odobimizni tasavvur eta olmaymiz.

Rivoyat qilishlaricha, bir qabilada shunday odat bo'lgan ekan: otasi qarib, kuchdan kolgach, o'g'li orqalab, kimsasiz toqqa eltib tashlarkan. Bir farzand otasiga rahmi kelib, yashirincha ovqat olib borib, padarini o'limdan saqlabdi. O'g'lini parishon ko'rgan ota buning sababini so'raganda, yurtda vabo tarqalgani, chorasi topilmayotganini bilibdi. Donishmand chol aytgan yo'l-yo'riq tufayli balo daf bo'libdi. Yana bir payt tabiiy ofatdan, keyingi safar dushmanning xujumidan qariyaning maslahatlari qabilani qutqaribdi. Yigitning «dono»ligi sabablari yurtdoshlari so'raganda, u o'lim jazosi xavf solsa ham, otasini asrab qolganiga, uning o'git va maslahatlari asqotganini aytibdi. Shu-shu keksalar hurmatini joyiga qo'yish rasm bo'libdi. «Keksani qopda saqla, o'ligini xafta saqla».

Ayol zotiga ehtirom – insoniyatning yarmidan ko'pini tashkil etadigan xotin-qizlarga bo'lgan munosabatning eng yuqori cho'qqisidir. Tarixda ayollar iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan xukmron bo'lgan davr matriarxat deb atalgan. Xukmronlik erkaklarga o'tgan davrlarda ayolning xaq-huquqlari va erkinliklarini kamsitadigan munosabatlar joriy etilgan. Demokratiyaning eng muhim yutug'i har ikki jinsning teng huquqli va erkin bo'lishini ta'minlashdir.

O'zbekistonda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar xotin-qizlarga munosabatda asosiy qonunning xalqaro huquqqa mos qoidalariga amal qiladilar.

O'zbeklar ayolga, avvalo, Ona, mehribon opa-singil, ardoqli qiz deb qaraydilar. Oilada ayolning o'ziga xos mavqei va o'rni bor. Xalqning boy madaniy merosi, adabiyoti, san'ati va falsafasi milliy g'oyasida aks etadi. Shuningdek, ayollarining go'zallik va nafosati, ularning vafo va sadoqati timsoli sifatida gavdalanadi.

Onaga bo'lgan xurmat va sadoqat – eng oliy qadriyatdir. Shuning uchun Vatanga, milliy tilga nisbat berilganda, Ona nomi qo'shiladi. Milliy istiqlol g'oyasi onalar uchun, jamiyatdagi barcha ayollar uchun farovon hayot, go'zal turmush yaratishni maqsad qilib, xotin-qizlarning erkinligi va o'z qadr-qimmatini anglab etishiga, o'z salohiyat va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishiga sharoit yaratishni bosh g'oyasida mujassamlashtirgan.

**Oila – muqaddas bo'lib oliy qadriyatdir.** Oila qurish - o'ta mas'uliyatli ishdir. «Oila – eskilik unsuri emas». U muqaddas, oilada millat kelajagi mujassam. Ayrim xalqlar mentalitetida farzandlar voyaga etgach, oilasi, ota-onasini tashlab, faqat o'z kuchi bilan mustaqil oyoqqa turish uchun uyini tark etadi.

O'zbek oilasidagi milliy udumlar, an'analar, qadriyatlar ajdodlarimizning bola tarbiyasi borasidagi o'g'itlari nixoyatda ibratlidir. Hozirgi milliy qadriyatlarimiz tiklanib, islomiy va dunyoviy bilimlarni puxta egallash uchun barcha imkoniyatlar yaratilayotgan bir vaqtda ana shu yuksak ma'naviy qadriyatlarimizni yoshlarimiz ongiga singdirishda oila, maxalla va maktab o'rnini yana bir marotaba tahlil qilish samaradorligini oshirishning barcha choratadbirlarini ko'rish zarur.

Dastlabki axloq maskani bo'lmish oilalar yig'indisi fuqarolik jamiyatini, millatni tashkil qiladi. Fuqarolik jamiyati moxiyatan oila bilan davlat o'rtasidagi daraja. Fuqarolik jamiyati zamonaviy dunyomizda vujudga keladi. Zero, hozirgi paytdagina fuqarolar huquqi xaqiqatdan ham inobatga olinadi. Fuqarolik jamiyati turli tabaqalardan tashkil topadi. Ular orasida tabaqaviy yoki sinfiy ziddiyat ro'y berishi mumkin emas. Chunki bunda shaxs-davlat fukarosi manfaatlari birinchi o'rinda turadi va bu manfaatlar ham ahloqiy, ham qonuniy jihatdan himoya qilinadi.

Mahalla — o'z-o'zini boshqarishning o'zbek xalqi yaratgan eng katta yutug'i, oqilona shaklidir. Mahalla — tarbiya maskani, har bir oilaga tayanch va suyanch ekanligi ko'pchilikka ayon. O'zbek xalqining hayoti, kundalik turmushi, qadriyatlari bilan tanishgan holis fikrli xorijliklar mahallani noyob qadriyat, buyuk kashfiyot sifatida e'tirof etmoqdalar.

Xar bir xalqning, millatning ma'naviyatini uning tarixidan, o'ziga xos urf-odatlar-yu an'analaridan, shuningdek, qadimiy qadriyatlaridan ajratib tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar bilan birga ota-bobolarimiz hamda ajdodlarimizning madaniy-ma'naviy hamda falsafiy merosi ham alohida o'rin egallaydi.

Istiqlol e'lon qilingan 1991 yilning sentabr oyida Toshkent shahrining markazida Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog' barpo etilib, unda mutafakkir shoir Alisher Navoiy bobomizning haykali qad rostladi hamda uning tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlangan an'ana har yili o'nlab, yuzlab buyuk ajdodlarimizning ezgu ishlariga ta'zim bajo keltirib, ularning mangulikka qo'nim topgan joylariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. 1992 yil shoir Boboraxim Mashrab tavalludining 350 yilligi nishonlanib, Namanganda haykal barpo etildi, shoir hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishtirish maqsadida muzey hamda bog' tashkil qilindi, 1993 yilda buyuk mutasavvuf Bahoviddin Naqshband hazratlari tavalludining 675 yilligi nishonlandi. Qadimiy Buxoro zamini Imom Buxoriy, Ibn Sino va Abu Bakr Narshaxiy kabi allomalarga, buyuk tariqat pirlari Abduxolik G'ijduvoni, Ali Romitoni singari aziz avliyolarga beshik bo'lgani bilan butun dunyoga ma'lum va mashhurdir. Bular orasida hazrat Baxovuddin Naqshbandning buyuk siymosi alohida nufuz va maqomga ega. Bu piru komilning "Dil-ba Yor-u, dast-ba kor", ya'ni "Diling Allohda, qo'ling - mehnatda bo'lsin" degan xayotbaxsh hikmati xuddiki shu bugun aytilgandek jaranglamoqda.

Buyuk mutafakkir Zamaxshariy qalamiga mansub “Al-Kashshof”, “Almufassal”, “Navobix ul-kalom”, “Maqomat az-Zamaxshariy”, “Muqaddimat ul-adab” va boshqa asarlari musulmon olamida keng tarqalib, uning falsafiy dunyosini aqliy hamda mantiqiy bilish haqiqat mezoni sifatida o’rganilib kelinmoqda. Islom dunyosida “Hidoyat yo’lining imomi”, “Mutakallimlar imomi” martabasiga muyassar bo’lgan, kalom ilmining Samarqand maktabini yaratgan mashhur alloma Moturidiy Abu Mansur as-Samarqandiyning asarlarida Alloh, inson va ilm masalalari muhim o’rin tutadi. Motrudiy merosini o’rganish imkoni faqat istoqlol tufayligina amalga oshirildi. Prezident I.Karimovning jonbozligi tufayli uning nomi qayta tiklanib, tavallud kuni keng nishonlandi. Uning boy falsafiy merosi bugungi kunda ilm ahli uchun dasturul amal vazifasini bajarib kelmoqda.

Shuningdek, Fapb va Sharq mamlakatlarida Alfraganus nomi bilan shuxrat qozongan olim Abul Abbas ibn Kasir al-Farg’oniy falakkiyot ilmi bilan muttasil shug’ullanib, koinotda yulduzlarning joylashishi, ularning sirlari hamda harakat qilish qonuniyatlariga oid tekshirishlar bilan mashg’ul bo’ldi. Ahmad Farg’oniy tinimsiz samarali ilmiy mehnati va faoliyati tufayli buyuk falakkiyotshunos sifatida ilmi riyoziyot va jo’g’rofiya sohasida katta obro’ qozondi. Shuningdek, Sharq mamlakatlarida “Hosib” ya’ni (matematik) degan laqab olgani ma’lum. Bu unga riyoziyot ilmi bo’yicha berilgan yuksak baxo edi. Ahmad Farg’oniy asarlari lotin tili orqali butun Ovro’paga tarqaldi. O’sha davrlarda lotin tili Ovro’pada umumiy aloqa tili hisoblanardi. Axmad Farg’oniyning asarlari o’zidan keyingi dunyo olimlariga qo’llanma sifatida xizmat qildi va xizmat qilib kelmoqda.

Buyuk allomalardan yana biri Abu Rayxon Beruniydir. Uning dastlabki eng yirik asari “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” bo’lib, uni 27 yoshida yozgan edi. Yirik hind davlat arbobi Javoxarlal Neru Beruniy asarlarini o’qib shunday yozgan: “Beruniy yunon falsafasini o’rganib, hind falsafasini mutolaa qilmoq uchun sanskrit ya’ni (qadimgi hind tili)ni o’rgana boshladi. U hind va

yunon falsafasini bir-biriga solishtirib, ularda mavjud bo'lgan umumiylikni ko'rib xayratda qoldi"<sup>1</sup>.

Abu Rayxon Beruniyning ko'pgina asarlari o'sha davr maktablari uchun maxsus darslik vazifasini bajardi. Xukumatimiz tomonidan ajdodlarimizning madaniy-ma'naviy merosiga hamda ularning boy, falsafiy dunyosiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ming yillik tarixga ega qadimiy shaharlarning yubileyleri keng nishonlandi. Ularning boy tarixi bugungi kunimizning poydevori bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, qadimiy Samarqand va Qarshi shahrining yubileyleri, 1997 yil qadimiy Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, 2002 yilda Termiz shahrining 2500, 2009 yilda Toshkent shahrining 2200 yilligi keng miqyosda o'tkazildi. Bu zamin quchog'ida ulg'ayib voyaga etgan, ilm-fanga, mamlakatimiz kelajagi va taraqqayotiga benazir hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlar, faylasuf va olimlarning nomlari qayta tiklanib, ularning yubileyleri o'tkazib kelinmoqda. 1995 yilda o'zbek olimi, tilshunos, shoir va faylasuf Abulqosim az-Zamaxshariyning 920 yilligiga bag'ishlangan xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. 1996 yil Amir Temur yili deb e'lon qilindi. 1996 yil ulkan davlat arbobi Fayzulla Xo'jaev, milliy tafakkurimiz tarixida mislsiz iz qoldirgan qomusiy olim va arbob shoir va dramaturg Abdurauf Fitrat yubileyleri o'tkazildi. Buyuk musavvir Kamoliddin Bexzod tavalludining 545 yilligi, Abdulhamid Cho'lpon tavalludining 100 yilligi, tarjimon va tarixchi Muhammad Rizo Ogaxiyning hamda qoraqalpoq shoiri Ajiniyoziyning tavallud sanalari, 2000 yilda Imom Moturudiy tavalludining 1130 yilligi keng nishonlandi. "Tariximizda bunday benazir siymolarning mavjudligi o'ziga xos bir fenomen, ya'ni o'ta noyob xodisadir. Bu esa nafaqat bugungi, ayni paytda ertangi avlodlarimizning ham ma'naviy boyligiga aylanib, xalqimizga hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydigan ruxiy kuch-quvvat va madad berishi muqarrar"<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup>Djavakartal Nuru. *Okritie Indii*. M, 1955, 246–247 -betlar.

<sup>2</sup>Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch*. Toshkent: "Ma'naviyat", 2008. 50-bet.

Biz ajdodlarimiz hamda ota-bobolarimizning qilgan ezgu ishlarining hamda madaniy-ma'naviy meroslarini o'qib o'rganib, uni xayotga tatbik etar ekanmiz, demak o'z-o'zidan milliy qadriyatlarimiz, betakror an'ana va marosimlarimizni ham ko'z qorachig'idek asramog'imiz kerak. Inson hayotida tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan, kishilar ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy xodisa hisoblanmish xalq o'yinlari, Navro'z bayramlari, milliy marosimlar va betakror an'analari shular jumlasidandir. Yurtimizda "Navro'z – umumxalq bayrami" sifatida keng nishonlanishi, keksalar va bemorlar holidan beminnat xabar olish, kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatish har bir insonning insoniylik burchidir. Qatsimiy tarixga ega bu bayramda turli sayllar tashkil qilish an'ana tusiga kirgan. Navro'z sayli, sumalak sayli, gul sayllari, suv sayli, tut sayli, qovun sayli, uzum va anjir sayllari yil davomida mavsumiy o'tkazilib kelinadi. Milliy taomlarimizdan sumalak, xalim tayyorlanib barchaga birdek ulashish yurtimizda kenglik va tenglikni bildiradi. Shuningdek, ko'ngillarda gina-kudrat va g'ubor bo'lmasligi uchun xalq o'yinlari va laparlariga alohida urg'u beriladi. Kun va tun tenglashadigan bu kunda har bir inson atrofdagilarga yaxshilik va ezgulik ulashish bilan birga, o'zidagi bor mahoratini namoyon etadi. Ayni chog'da o'tkazilayotgan tadbiru tantanalar zamirida nihoyatda muhim ma'rifiy maqsadlar, ertangi kunimiz uchun g'oyat zarur dasturiy vazifalar ham mujassamdir. Shuningdek, biz tarixiy adolatni, milliy-ma'naviy qadriyatlarsh tiklar ekanmiz, bu sa'y-harakatlar, o'z navbatida, xalqimizning birligiga hamda jamiyatimizning mustahkamligiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yangi poydevori tiklanayotgan madaniyat, san'at, fan va ta'lim sohalarining butkul bir boshqa sharoitdagi rivoji va istiqboli uchun hamda milliy qadriyatlarimiz an'ana va udumlarimizning qayta tiklanishi xalqqa qaytarilayotgan meros va uni o'rganish, tadbiq etish uchun yaratilayotgan imkoniyat XXI asrda O'zbekistonning madaniy va ma'naviy qiyofasini yanada jonlantirish va mustahkamlashga harakat qiladi. Shunday ekan, mustaqillik yillarida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy

meros, xalq ruhiyatini tiklash sohasida amalga oshirilgan, ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz xalqimiz ko'zlagan ezgu niyatlariga erishish, hech kimdan kam bo'lmaydigan xayot barpo etish, yoshlarimiz, xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida mustahkam zamin yaratdi. Zero, "Ma'naviyatni yuksaltirsak, o'z murod-maqsadimizga etishda kuchli madad topamiz"<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Eng acociy mezon - hayot haqiqatini aks ettirish. – Toshkent: "O'zbekiston", 2009-12-b.

## **II-BOB. Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida ma'naviy sohasidagi siyosatning ahamiyati.**

### **2.1. Jamiyat taraqqiyotida ma'naviy islohotlarning o'rnini va ahamiyati.**

O'zbekiston jamiyatini modernizatsiyalashning hozirgi jarayonida IZCHIL amalga oshirilayotgan ishlar samaraliligi bilan diqqatni tortmoqda. Negaki bu jarayon quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilayotgani ma'lum:

- davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish;
- sud-huquq tizimini isloh etishni chuqurlashtirish;
- axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash;
- saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish;
- fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishi;
- demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish<sup>1</sup>.

Tabiiyki, bu jarayonda *ma'naviyat sohasidagi siyosat* asosiy g'oyaviy tamal bo'lib xizmat qiladi. Chunki mazkur siyosatning asosiy negizini yurt tinchligini mustahkamlash va Xalq farovonligini yuzaga keltirish tashkil qiladi<sup>2</sup>. E'tibor berilsa, bu g'oyalarga quyidagi xususiyatlar xos:

- 1) inson va jamiyat manfaatlarini ustuvor bilish, ijtimoiy adolatni ro'yobga chiqarish;
- 2) Tinchlikparvarlik, vatanparvarlik va xalkparvarlikni oliy maqsad – muddao deb bilish;
- 3) xalq uchun farovon turmush tarzi barpo etish va h.k.

Bu g'oyalar yuqorida ta'kidlangan modernizatsiya Konseptsiyasi uchun muhim ijtimoiy zamin hozirlaydi. Shu ma'noda ma'naviyat sohasidagi siyosat

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010

<sup>2</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 71-74

jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida g'oyaviy uyushuvchanlik, ijtimoiy faollik va faoliyat samaradorligi vazifasini bajaradi.

Modernizatsiyaning samarasi taraqqiyotni yuzaga keltirishi bilan baholanadi<sup>1</sup>. Shunday ekan, mazkur jarayonda mamlakatimiz uchun ma'naviyat sohasidagi siyosat quyidagi jihatlari bilan ahamiyatga egadir:

- odamlar ongida milliy, umuminsoniy va demokratik qadriyatlarni uyg'un shakllantirish;

- odamlarni g'oyaviy-ijtimoiy illatlardan (zo'ravonlik, boqimandalik, to'qlikka-sho'xlik, me'yorsiz individualizm kabilardan) muhofaza qilish;

- odamlarni erkinlik, adolat va taraqqiyot ruhida tarbiyalash;

- jamiyatda huquqiy madaniyat, inson huquqlariga rioya qilish va qonun ustuvorligi darajasini oshirib borish;

- aqliy, ahloqiy va jismoniy tarbiya uyg'unligini ustuvor darajada targ'ib qilish;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'rtasida teng hamkorlik hamda o'zaro tiyilib turishni ta'minlash;

- «Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari» harakatiga g'oyaviy asos bo'lish va h.k.

Ma'naviyat sohasidagi siyosat demokratik va liberal xususiyatga egaligi bilan jamiyatni modernizatsiyalash jarayonini tezlashtiradi. Bu siyosat temuriylar davlatining ideologlaridan biri Xusayn Voiz Koshifiy (1442-1505) iborasi bilan aytganda, «mamlakatni qo'lda tutish va har kimni o'ziga munosib o'ringa qo'yish»ga asoslanadi<sup>2</sup>.

Tarix tajribasidan o'tgan bu ikki qoida butun ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Negaki «mamlakatni qo'lda tutish» bu milliy taraqqiyotni ta'minlashda kuchli g'oyaviy asosga tayanishni va «har kimni o'ziga munosib o'ringa qo'yish» esa odamlarni layoqati, mehnati hamda faoliyatiga ko'ra mazmunli xayot

---

<sup>1</sup> Skirbekk G., Kile N. Falsafa tarixi. – T.: Sharq. 2002 – B.690

<sup>2</sup> Koshifiy H.V. Futuvvatnomai sultoniy. Ahloqi muhsiniy. – T.: O'zME nashr., 2011. – B.261

kechirishga o'rgatishni ifodalaydi. Shu o'rinda ma'naviyat sohasidagi siyosatning ikki aspekti namoyon bo'ladi: 1) odamlarga o'zligini anglatish: 2) mamlakatni xurujlardan himoya qilish<sup>1</sup>. Bu jamiyatni modernizatsiyalash jarayoni uchun kislroroddir.

Ma'naviyat sohasidagi siyosat tamallari izchil va mudom yangilanib, sayqallanib borishi bilan jamiyatni yangilashda qo'l keladi. Agar unga stereotiplik xos bo'lganida jamiyatni modernizatsiyalashda g'oyaviy-ijtimoiy asos bo'la olmasdi. Mazkur masala aniq idrok qilinishi shart.

Zero, jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida ma'naviyat sohasidagi siyosat muhim ilmiy-nazariy o'rganish va amaliy xulosalarga kelish oldimizda turgan muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi.

Mustaqillik yillarida ma'naviy hayotimizda erishgan dastlabki eng birinchi va asosiy yutug'imiz shu bo'ldiki, Vatanimizda insoniy qadr-qimmat yuksak maqom kasb etdi, xalqimiz sarchashmalarining ko'zlari qaytadan ochildi, jamiyatimizni madaniy-ma'naviy jihatdan yangilash ishlariga jiddiy ravishda kirishildi. Bozor munosabatlariga yuksak ma'naviyat va ma'rifat negizida o'tish boshlandi. Huquqiy bilim va madaniyat rivojlantirila boshlandi. Kishilarda yangicha falsafiy tafakkurlash usuli shakllana bordi.

Prezident Islom Karimov jamiyat taraqqiyotida katta rol o'ynaydigan kishilar ularning ma'naviy kamoloti, bu sohalarda o'ynaydigan roli haqida gapirib, ta'kidlaganlaridek, «...bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli olamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurasha olishi mumkin»<sup>2</sup>.

Mustaqillikning madaniy-ma'naviy jabhadagi yutug'i va saboqlaridan yana biri shundan iboratki, xalqimiz o'zining buyuk tarixi va milliy o'zligini chuqur

---

<sup>1</sup> Shu joyda

<sup>2</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 16

anglay boshladi. Ajdodlarimiz qoldirgan bebaxo, merosidan baxramand bo'ldi. O'z kelajagini, o'z istiqbolini buyuk tariximiz mezoni bilan o'lchashni, uni aniq va keng ko'lamda tasavvur etishni o'rgana boshladi.

Ajdodlarimizning asriy an'analari, odob-ahloqi, ta'lim tarbiya tizimi borasidagi yutuqlarini, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy xayoti va o'ziga xos turmush tarzi va qadriyatlarini ifodalagan ona tilimizning mazmun-mohiyati va qadr-qimmatini chuqur anglay boshlaganligi mustaqillik sharoitida ma'naviy xayotda ro'y bergan ijobiy o'zgarishlarning muhim ko'rinishlaridan biridir.

Yuksak ma'naviyat har qanday vaziyatda ham jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lgan. Xalqi ma'naviy jihatdan qashshoq bo'lgan mamlakat hech qachon buyuk, porloq istiqbolga ega davlat bo'la olmaydi. Ma'naviyat va ma'rifatning jamiyat taraqqiyotidagi mavqei va ahamiyati, ayniqsa tarixning tub burilish davrida beqiyos bo'ladi.

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritish qanchalik og'ir va mashaqqatli jarayon bo'lgan bo'lsa, uni saqlab qolish, mustahkamlash, barqarorligini ta'minlash ham shu qadar murakkab va o'ta mas'uliyatli vazifadir. Mustaqillikni mustahkamlash, jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtirish va jadallashtirishda iqtisodiy va siyosiy omillar qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi o'z-o'zidan tushunarlidir albatta.

Mustaqillik uchun ma'naviyat bilan bog'liq bo'lgan omillarning ahamiyati shu qadar muhim va kattaki, ularni hech qachon ikkinchi o'ringa surib qo'yib bo'lmaydi. Shuningdek, mustaqillikning iqtisodiy va siyosiy muammolari hal qilib bo'linganidan keyin ma'naviyat masalariga o'tiladi, deb hisoblash nazariy jihatdan xato bo'lsa, amaliyotda esa zararlidir. Jamiyat taraqqiyotida ma'naviyatning o'rni katta ekanligini Islom Karimovning quyidagi fikrlaridan bilib olsa bo'ladi «Umuman olganda, insoniyat tarixi ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda

ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik va mexr-oqibat, baxt va saodat bo'lmasligini yaqqol tasdiqlaydi»<sup>1</sup>.

Agar xalqda mustaqillik haqida bilim va tasavvur bo'lsa-yu, ammo mustaqillik haqidagi g'oya e'tiqodga, dunyoqarashga aylanmagan bo'lsa, unda mustaqillik barqaror bo'lmaydi. «Chunki tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan kutilmasa, inson to'la ozod bo'lolmaydi. Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan etuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim. murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat-ma'rifatli insonning ikki qanotidir»<sup>2</sup>.

Bugungi kunda ijtimoiy tarakkiyotimizga. bizning ongu tafakkurimizga, ma'naviyatimizga kishan bo'lib turgan eskicha asorat va illatlarning oldini olish, ularni davlat va jamiyat manfaatlariga etkazadigan moddiy, ma'naviy, ruxiy zararli ta'sirlarini bartaraf etishning juda ko'plab vositalari, omillari, echimlari mavjud. Mazkur muammoning eng muhim va zarur echimlaridan biri – ma'naviyat borasidagi islohotlardir.

Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlamay va rivojlantirmay, buning uchun zarur bo'lgan qulay shart-sharoitlar, ijtimoiy-siyosiy asoslarini yaratmay turib, jamiyatimiz taraqqiyotini amalga oshirib bo'lmaydi.

Ma'naviy yuksalish o'z-o'zidan amalga oshadigan jarayon emas. Insonning ma'naviy kamoloti, qobiliyati, iqtidori, salohiyatini ro'yobga chiqarishi, amaliyotda, ish maydonida o'zini to'la namoyon etishi uchun shart-sharoit va imkoniyatlar zarur.

Shunday qilib, mustaqillik yaratib bergan ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy-huquqiy, madaniy shart-sharoitlar va imkoniyatlar asosida va umumbashariy qadriyatlar negizida yuksalib borayotgan ma'naviyatimiz va ma'rifatimiz O'zbekiston taraqqiyotining poydevori bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B.16

<sup>2</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B.28

voyaga etkazishda, dunyoqarashi va e'tiqodini shakllantirish va mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ma'naviy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida xalqimiz merosining noyob namunalarini to'plash, avaylab-asrash, targ'ib etish, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizda mustaqillik, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, milliy an'analarimiz va urf-odatlarimiz davomiyligini, ravnaqini, ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashib borishini amalga oshirish uchun respublikamizda juda katta ishlar amalga oshirildi.

Jamiyat taraqqiyotida, O'zbekistonni yanada yuksalib borishida va oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishishda ma'naviyatni yuksaltirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar bugungi kunda Prezidentimiz Islom Karimov ma'naviyatning bosh himoyasi sifatida mamlakatimizda ma'naviyat va ma'rifat ishlarini rivojlantirish jarayonlariga birinchi darajali ahamiyat berib kelmoqda. Uning quyidagi fikrlari bunga misol bo'ladi: «Biz ma'rifat va ma'naviyatga tadbirkorlik va tijorat sohalari tomonidan qilinayotgan homiylikni qo'llab-quvvatlaymiz, bunday homiylik berish lozimligini ham bilamiz. Lekin xomiylik mablag'lari chinakam badiiy asarlarga sarflanishi shart. Xalqimizning kelajagi uchun suvday, xavoday zarur bo'lgan sohalarga birinchi va eng katta xomiy davlatning o'zi»<sup>1</sup> doimgidan ko'ra ham muhimrokdir.

Ko'pgina mamlakatlarning tajribasi iqtisodiy islohotlar xalq xo'jaligining barcha sohalarida bir xil jadallik bilan amalga oshmasligini ko'rsatmoqda. Respublikamizda ham etilgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni birdaniga xalq etib bo'lmaydi. Resurslar cheklangan sharoitda hamma muammolarni bir yo'la hal qilishga urinish hech qanday samara bermaydi. Shu sababli islohot yo'nalishlarini belgilab olish chog'ida shunday asosiy bo'g'inlarni topish muhimki, ularga asoslanib jamiki muammolarni hal qilish mumkin bo'lsin. Respublikada amalga oshirilayotgan tub bozor islohotlarimizning butun dasturi eng muhim vazifalarni izchillik bilan hal etishga asoslangan. Iqtisodiy islohotlarning butun zanjirida agrar

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. T.: O'zbekiston. 1996 y. 36-bet

sohadagi o'zgarishlarga g'oyat katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa aholining aksariyati qishloqda yashashi, iqtisodiyotning agrar sanoat tarzida ekanligi, hamda hayotiy muhim muammolarni hal qilishda qishloq xo'jaligining tutgan o'rni bilan bog'liq. Hozir iqtisodiyotning ayni agrar sohasi katta imkoniyatlarga ega. Bu imkoniyatlardan foydalanib aholini oziq-ovqat va sanoatni xom ashyo bilan ta'minlashni yaxshilabgina qolmay respublika qishloq aholisining turmushini farovon qilish ham mumkin. Lekin eng muhimi qishloq iqtisodiyotda va ijtimoiy turmushda, binobarin siyosatda ham shunday bir bo'g'inki, shu bo'g'in orqali butun respublika farovonlik va to'kin - sochinlikga erishadi. Dehqon badavlat bo'lsa, butun respublika badavlat bo'ladi. Qishloqda ishbilarmonlikni, fermer xo'jaliklarni va kichik korxonalarini rivojlantirishga amaliy - moliyaviy madad berish uchun "Qishloq qurilishi va taraqqiyoti" degan maxsus aksionerlik tijorat banki tuzildi. O'zbekiston Respublikasining milliy pul birligini muomulaga kiritilganligi alohida e'tiborga molikdir. Eng avvalo boshqa davlatlardan iqtisodiy mustaqil bo'lish uchun respublika o'z pul birligiga o'zining milliy valutasiga ega bo'lishi lozim. Milliy xususiyatlar va an'analarni hisobga olgan holda bozor munosabatlariga o'tishning aniq ustuvorliklarini, printsiplarini va yo'nalishlarini aniqlab oldi va 19 yillik tajribada tanlangan yo'lning to'g'riligini ishonarli tarzda tasdiqladi. Respublikada ijtimoiy - siyosiy barqarorlik va fuqarolar totuvligi puxta ta'minlangan.

O'z istiqbol va taraqqiyot yo'limiz - bu gul bilan qoplangan yo'l emas, bu - totalitarizm merosidan xalos bo'lish va poklanish mafkuraviy illat etkazgan ziyon - zahmatlarni bartaraf etishda qiyin, uzoq davom etadigan yo'ldir. Bu - jahon tsivilizatsiyasiga qo'shilish, chinakam siyosiy va iqtisodiy istiqbolga erishish yo'lidir. Bu yo'ldan faqat haqiqiy vatanparvargina, o'z mamlakati va xalqining taqdiri uchun butun qalbi va yuragini bag'ishlagan o'z manfaatini respublikaning qudratli va farovon bo'lishiga erishish maqsadlariga bo'ysundira oladigan, bunga o'zining kuch-g'ayrati, tashabbusi, bilimi va mehnatini bag'ishlay oladigan kishilargina yura oladi. Respublikaning har bir fuqarosi respublika taqdiridagi

tarixiy o'zgarishlarda faol ishtirok etib, kelajak uchun shaxsiy mas'uliyatini haqiqiy xis etgan taqdirdagina xalqimiz chinakam erkin va baxtiyor yashaydigan kuchli davlat qurishi mumkin.

Tanlangan yo'ldan sobit qadamlar bilan olg'a bosish, turli aldovlarga uchmaslik, e'tiqodda izchillik tufayli fojiali vaziyatlardan chiqib ketildi. Endi iqtisodiyotimizni barkaror rivojlantirish, siyosiy xayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil islox qilishga imkoniyat yaratgan faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davriga qadam qo'yildi. Bu bosqich 2001-2007 yillar sifatida qayd etiladi. Ushbu bosqichning muhim dasturiy vazifalari – siyosiy va iqtisodiy hayot, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabg'alarini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, mustaqil sud tizimini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdan iborat bo'ldi. Bu davr – milliy taraqqiyotimizning keyingi mantiqiy bosqichi bo'lib izchil davom etmoqda.

Yangi davlat va jamiyat qurish amalda o'zini to'la oqlagan tamoyillar — «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmag», «Islohotlar — islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning manfaatlarini uchun» degan maqsad-muddao asosida yaratildi.

Istiqlolning mashaqqatli yo'li xalqimizning yorqin kelajagi uchun mustahkam poydevor qo'ydi. O'zingiz o'ylang, 90-yillarda O'zbekiston qanday respublika edi? Uning erkin va ozod, teng hquqli bo'lishi, bugungi O'zbekistondan mamlakat dunyoda bo'y ko'rsatishi mumkinligini hamma ham tasavvur eta olarmidi? Prezidentimizning jasorati shundaki, u sobiq Ittifoq respublikalari ichida birinchi bo'lib davlat mustaqilligini e'lon qildi! Xo'sh, bu ilk qadamni, ilk jasoratni nega boshqalar amalga oshirmadi? Chunki... bu qadam — juda og'ir, g'oyat ma'suliyatli, ammo sharafli edi. Chunki birinchi bo'lishning o'zi bo'lmaydi. Uning zalvorli yuki bor.

Istiqlolning birinchi yillaridagi mashaqqatlarni eslang. Do'konlarda hatto bir bo'lak xo'jalik sovunini topishning o'zi amri maxol edi. Un, yog' va boshqa kundalik ehtiyoj mollaridagi takchiliklar bir tomon bo'lsa, boshqa tomondan mamlakat xavfsizligini saqlash, elning tinch-hotirjamligini muxofaza qilish eng muhim vazifalardan biri hisoblanardi.

Bu vazifalarni joy-joyiga qo'yish aytishga oson emas edi, albatta. Chunki o'sha paytlar yurt tinchligini buzish, yovuz maqsadlarni amalga oshirishga shay kuchlar kam emas edi. Buni 19 yil davomida respublikamizning turli xududlarida, shu jumladan, Toshkent shahrida amalga oshirilgan terroristik harakatlar yoki Andijon voqealari ham isbotladi.

Mamlakatning mustahkam milliy mudofaa tizimi, mustaqil qurolli kuchlari shakllantirildi. Armiyamiz safida milliy qo'mondon kadrlarni shakllantirish, qo'shinlarning sifat tarkibini yaxshilash, zamonaviy xarbiy texnika, qurol-aslahalar bilan ta'min etish va shu kabi ko'plab hayotda kundalang bo'lgan muhim vazifalarning ijrosi ta'minlandi. Bir paytlar ota-onalar farzandlarini armiyadan olib qolish uchun bor imkoniyatini ishga solishardi. Bugun O'zbekiston fuqarosi uchun mustaqil armiyamizda xizmat qilish chinakam shon-sharafga, faxr-iftixorga aylandi. Yurtimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, Oliy Majlisning quyi va yuqori palatasining shakllantirilishida, sud-huquq islohotlaridagi tub islohotlar, xususan, 2008 yil 1 yanvardan mamlakatda o'lim jazosini bekor qilish, shuningdek, fuqarolarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini prokuraturadan sudlarga o'tkazish to'g'risida qabul qilingan qonunlar xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy kutib olindi va butun dunyoda katta aks-sado berdi.

Istiqlol yillarida qo'lga kiritilgan yutuqlarni e'tirof etganda, albatta, ana shu davr ichida mamlakatda qurilgan yangidan-yangi inshootlarni, ta'lim, sog'liqni saqlash muassasalarini ham aytib o'tmasdan iloj yo'q. Xususan, Buxoroda neftni qayta ishlaydigan yangi zamonaviy zavod barpo etildi, Farg'ona va Oltiariqdagi neftni qayta ishlash zavodlari qayta modernizatsiya va rekonstruktsiya qilindi, Sho'rtan gaz-kimyó majmuasi yoki Qo'ng'iro't soda zavodi, Asakadagi

O'zDEUavtomobil ishlab chiqarish korxonasi, o'nlab tqo'imachilik inshootlari, yuzlab yangi qo'shma korxonalar qurildi. Bugun Vatanimizning qaysi go'shasiga bormang, o'zgarishlar, qurilishlarga guvox bo'lasiz. Xususan, mamlakatimiz yo'llari ayniqsa, so'nggi yillarda barpo etilgan, umumiy uzunligi 633 kilometrni tashkil qiladigan Navoiy-Nukus, 243 kilometrlik Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'l magistrallari, Qamchik dovoni orqali o'tadigan tezkor avtomobil yo'lining ahamiyati g'oyat kattadir. Bu yo'llar yorqin kelajagimizning yo'llaridir. Ular orqali O'zbekiston bermalol dunyoga chiqmoqda.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, o'zbek modeli deb atalmish taraqqiyot yo'limiz tamoyilari asossida moddiy, ma'naviy qadriyatlar shakllandi. Prezidentimiz ma'ruzalarida ta'kidlagalaridek «Buyuk kelajagimiz poydevorini o'z qo'limiz bilan barpo etayotganimiz har qancha faxrlanish, barchamizga bosib o'tgan yo'limizni minnatdorlik bilan eslash uchun asos beradi».

Shubhasiz, o'z yo'lida nurli manzillarni ko'zlagan va ularni qadamba-qadam kashf qilib kelayotgan karvon navbatdagi yorug' manzillarga intilmoqda. Yurtimiz – O'zbekison ulug'vor azmu shijoat bilan yuksak marralarni ko'zlammoqda. Hammamiz ana shu buyuk safda bo'laylik. Zero, Vatan kelajagidan ayri, o'zgacha baxt bo'lishi mumkin emas.

Bugungi kunda tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, tarixda tom ma'nodagi demokratik tamoyillarga va uning barcha elementlariga to'la rioya qilgan davlatlar mavjud bo'lmagan. Demokratiya sof, universal model sifatida xech qachon mavjud bo'lmagan va bo'lishi ham mumkin emas. Chunki, demokratiyani bunday tushunish uning, ichki mohiyati va mantig'iga ziddir. Buyuk yunon faylasufi Arastu ta'kidlaganidek, “Sof demokratiya bu ahlokratiyadir, o'z navbatida, axlokratiya esa jamiyatni, xalokatga olib boruvchi yo'ldir”. “Demokratiya asli erkinlik degani bo'lsa, erkinlikni qanday qilib zo'ravonlik bilan joriy etish mumkin?”<sup>1</sup>, degan mantikan izchil kuyilgan savolning uzida masalaning echimi mavjuddir.

---

<sup>1</sup> Karimov.I. Inson.uning huquq va etkinliklari hamda manfaatlari—eng oliy qadriyat.-T: O'zbekiston, 2006.-B.13

Demokratik jamiyatda ijtimoiy hayotning barcha jabxalarining rivojlanishi mafkura, milliy g'oya va qonunlar asosida amalga oshiriladi va jamiyat, davlat manfaatlariga xizmat qiladi. Demokratiyaning qanday shakli bo'lishidan qat'iy nazar, agar u O'zbekistonning davlat tizimi sifatidagi manfaatlariga, millat manfaatlariga zid bo'lsa, axlokratiya bo'ladi. Shuning uchun ham demokratik jamiyatni belgilovchi quyidagi mezonlarni ishlab chiqish muhim metodologik ahamiyatga molik masalalardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy falsafa fani nuqtai nazaridan qaralsa, bu mezonlarning eng muhimi:

**Birinchidan,** O'zbekiston fuqarolarining davlat tomonidan qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligi;

**Ikkinchidan,** qonunchilikning ikki palatali tizimining joriy qilinishi va uni ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtiroki;

**Uchinchidan,** xukumat qarorlarining xalq tomonidan nazorat qilinishi;

**To'rtinchidan,** barcha fuqarolarning davlatni boshqarishda qay darajada ishtirok etishidir.

Tabiiyki, demokratik jamiyatning nechog'lik demokratik yo'ldan borayotganligini aniqlaydigan boshqa mezonlari ham mavjud. Ammo yuqorida qayd etilganlar, ayni paytda amalda bo'lgan eng muhim mezonlardir.

Umuman, demokratiya faqat nazariy yoki ijtimoiy-falsafiy tushuncha bo'libgina qolmay, ayni paytda u, xalqning turmush tarzi, uning an'analari, madaniyati, psixologiyasi hamdir.

Ijtimoiy amaliyot, shuni ko'rsatmoqdaki, qandaydir axborot texnologiyalari, yoki boshqa bir qandaydir noqonuniy usullar bilan kirib qolgan "demokratik andozalar", mamlakatimizda jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan demokratik islohotlarning umumiy tendentsiyalari, yaxlit, ijtimoiy-siyosiy tizim uchun begona element sifatida muayyan ichki ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda sharqona demokratik tamoyillar demokratik qadriyatlar xalqimiz xayotiga teran ildiz otib kirib kelmoqda. Buning natijasi o'laroq, davlatimiz xududida istiqomat qiluvchi barcha

fuqarolarning ma'naviy yaxlitligini ta'minlash, o'zlikdan chekinmaslik, ijtimoiy adolatni qaror toptirish ta'minlanmoqda. Bugungi kunda yuzaga kelayotgan demokratik jarayonlarda Prezidentimiz ta'kidlaganidek, Sharqda demokratiyaning jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari o'z ifodasini topgan. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi.

Demokratiyaning mamlakatimizdagi yorqin ko'rinishlaridan biri-bu har bir insonga haq-huquqlarining berilishi, ularning davlat tomonidan himoyalashining kafolatlanishi, shuningdek, vijdon erkinligining ta'minlanishidan iborat. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida qayd etilganidek, "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xoxlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi"<sup>1</sup>.

Shu o'rinda, ta'kidlab o'tish joizki, demokratiyaning universal modeli bo'lishi mumkin bo'lmaganidek, demokratik jamiyatning muhim elementi bo'lgan diniy e'tiqodning barcha fuqarolar uchun majburiy bo'lgan universal modelining bo'lishi ham mumkin emas.

O'zbekistonda shakllanayotgan milliy davlatchilik xalqimizning boy tarixiy merosi va umumjaxon qadriyatlari asosida shakllanayotgan sharqona demokratiyaning o'ziga xos ko'rinishidir. Binobarin, O'zbekistonda shakllanayotgan demokratiya qonunlar, ijtimoiy normalar, shuningdek, mintaqada va jaxonda kechayotgan murakkab jarayonlarni o'zida mujassam etib, davlat, millat va xalqimiz manfaatlarini himoya qiladi va ular uchun xizmat qiladi.

Sharqona demokratiya faqatgina sof nazariya yoki ijtimoiy-siyosiy jarayonlargina bo'lib qolmay, shu bilan birga ming yillar davomida shakllanib kelgan, mintaqamizda istiqomat qilib kelgan xalqimizning turmush tarzi va ruhiyati, tafakkuri, real ijtimoiy amaliyoti hamdir. Ana shu jihatdan mazkur masalaga yondashadigan bo'lsak, shuni e'tirof etish kerakki, Osiyo mintaqasida va

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.–T.:O'zbekiston,2002.–B.15

Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Ularga quyidagilar kiradi.

Birinchi, Sharqda demokratik jarayonlar tadrijiy va uzviy ravishda asta-sekin taraqqiy topadi;

Ikkinchi, jamiyatni demokratlashtirish odamlarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasi va sur'atlari bir-biriga qanchalik mutanosib bo'lishiga bog'lig' dir;

Uchinchi, demokratik jarayonlar xalqimiz milliy madaniyatining o'ziga xos jihatlari, uning tabiatini o'zida mujassam etmog'i kerak<sup>1</sup>.

Binobarin, O'zbekistonda sharkona demokratiyaga asoslangan jamiyatni barpo etish, mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy maqsadlaridan biridir. Shu ma'noda sharqona demokratiya deganda, har qanday munozarali masalalarni tinch yo'l bilan hal etish, erkin fikr almashish, barcha fuqarolarning manfaatini ifodalaydigan xulosaga kelish, har qanday mafkuraviy tazyiqlarni asrlar davomida shakllangan Sharq xalqlarining xurfikrlilik va muloxazakorlik asosida bartaraf etish singari xususiyatlarni o'zida mujassam etgan holda, ozod va farovon xayotni ta'minlashdir.

Tabiyki, sharqona demokratiya, umumdemokratik tamoyillarni o'zida mujassam etishi bilan birga, Sharq tsivilizatsiyasiga va ma'naviy, mafkuraviy qadriyatlariga xos bo'lgan muhim belgilarni ham aks ettiradi. Masalan bunday belgilardan, adolatparvarlik, hamjihatlik, xurfikrlilik va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Demak, demokratik jamiyat – yangicha tafakkur tarzi, aql-idrokka, mafkuraga tayangan kishilarning munosabati. Demokratiya – yuksak ma'naviyat va insonning ichki madaniyatini, ruhiyatini namoyon etish imkoniyatidir.

Sharqona demokratiyaga Prezidentimiz I.A.Karimov shunday ta'rif bergan edilar: “Osiyo mintaqasi va musulmon sharqidagi demokratik qadriyatlar va o'zgarishlarning rivojlanish tajribasi o'ziga xos an'alariga ega. Sharqda

---

<sup>1</sup> Qarang: Tulenov J., G'aiturov S. Falsafa. -T.: O'qituvchi, 1997. –B.356

demokratiya tushunchasi hamjihatlik g'oyasi, jamoatchilik fikrining ustuvorligi zaminida shakllanadi"<sup>1</sup>. Shu ma'noda, fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlashning pirovard natijasi O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishdan iborat – milliy qadriyatlar va ma'naviyat demokratik jamiyatni shakllantirishni tezlashtiradi. Professor A.Jalolovning fikriga ko'ra, "Demokratik o'zgarishlarning hozirgi bosqichi ma'naviy sohadagi islohotlarni o'ta muhim dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Zero, ma'naviyati sust va shu bois xalqi parokanda, ya'ni u yuksak ma'naviy negizda nodavlat notijorat tashkilotlar, jumladan siyosiy partiyalarga uyushmagan mamlakatda davlat xokimiyati idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatib bo'lmaydi"<sup>2</sup>.

Demak, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning asosi bo'lgan fuqarolik jamiyati bularsiz shakllanmaydi, fuqarolik jamiyati to'la-to'kis shakllanmasa, demokratik islohotlarni amalga oshirishning imkoniyati bo'lmaydi.

## **2.2. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda jamiyat ma'naviy qiyofasining ahamiyati.**

---

<sup>1</sup> Kanimov L.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy islochlarning asosiy tamoyillari. - T.: O'zbekiston, 1992. -B. 12-14

<sup>2</sup> Jalolov A. Demokratiya - muammolar echimi // O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish mamlakatni modernizatsiya etish yo'li. Ijtimoiy-ustubiy anjuman materiallari to'plami. - T.: TDYuI, 2005. -B. 11,

Mustaqillikni mustahkamlash jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy jabhalarida tub tarixiy burilish bilan bog'liq bir qator muammolarni va vazifalarni hal etish masalasini qo'ymoqda. Ana shunday ulkan vazifa va mas'uliyat xalqimizdan bir tomondan, ma'naviy yangilanish jarayonini to'liq idrok etishni, ikkinchi tomondan esa, demokratik jamiyat qurishda unga tayanishni taqazo etmoqda. Negaki, milliy-ma'naviy yangilanish, yuksalish, taraqqiyot omiliga aylanmoqda. Shu bois, mustaqillik yillarida jahon tsivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk allomalarimizning merosini ham yangidan ijodiy o'zlashtirish hayotiy ehtiyojga aylandi. Ayniqsa, Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Baxouddin Naqshband, Xoja Axmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zaxiriddii Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Bexbudiy, Usmon Nosir va boshqa ko'plab buyuk siymolarimiz ilmiy-adabiy merosini o'rganish mamlakatimizda barpo etilayotgan demokratik jamiyatning milliy – ma'naviy negizlarini tashkil etmoqda. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq, ajdodlarimiz tomonidan kun asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaxr ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi.

Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat o'zviy, tabiiy jarayon deb xisoblaymiz.<sup>1</sup> Masalaning xuddi shu jihatiga urg'u berib, mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida bayon etilgan oltita ustuvor yo'nalishning bajarilishi kerak bo'lgan ulkan vazifalar paydo bo'ldi. Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'ziga xos milliy ma'naviyat va madaniyatning sohibiga aylandi.<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup> Karimov I.A O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. —T.: O'zbekiston, 1997, 137-138-betlar.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild. – T.: O'zbekiston. 1998, 125-bet.

O'zbekiston bugungi kunda tom ma'nodagi asrga teng buyuk voqealarni boshidan kechirmoqda. Tarixdan ma'lumki, biror xalq, hayotida tub burilish sodir bo'layotgan davrlarda jamiyat yangi istiqbollar sari bormog'i uchun ijtimoiy munosabatlari i shunga muvofik o'zgartirmog'i lozim bo'ladi. Shu bois, ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar shaxsning va butun jamiyatning tafakkurida, dunyo-qarashida, ma'naviy olamida o'zgarishlarni taqozo etadi.

XX asrning ulug' gumanisti A.Shveytser: «Vokelmkni shakllantiruvchi kuchlar ichida ma'naviyat birinchidir»<sup>1</sup>, degan edi. Viz butun ulkan imkoniyatlar davrida yashamoqdamiz. Biroq ularni real voqelikka aylantirish yo'lidagi g'ov va xavf-xatarlar ham mavjudligicha qolmoqda.

Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarni izchillik bilan amalga oshirish uchun avvalo, insonlar ongida tub o'zgarishlar yuz berishi zarur. Zero, kishilar tafakkurini band etgan eski andozalardan, tor qoliplardan, o'z umrini yashab bo'lgan aqidalardan xalos etmay turib, yangi davr, tarixiy taraqqiyot bilan tabiiy ravishda qo'l ushlab keladigan yangidan-yangi muammolarni xal etib bo'lmaydi.

Prezident I.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida mustaqil taraqqiyotimizga xavf solayotgan tashqi va ichki tahdidlar hamda ularning oldini olish yo'llari haqida batafsil fikr yuritib, ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning ahamiyatiga alohida urg'u beradi va: «Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy pa ahloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay turib, o'z istikbolini tasavvur eta olmaydi»<sup>2</sup>, deya alohida ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, jamiyatni ma'naviy jihatdan yangilamay, kishilar tafakkurini o'zgartirmay turib, demokratik jamiyatni qurish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, umuman hech qanday taraqqiyotga erishish mumkin emas. Zero, demokratik fuqarolik jamiyati yuksak ma'naviyat va keng ma'rifat tantana qilgan jamiyatdir.

---

<sup>1</sup>Karimov.I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild. – T.: O'zbekiston, 2003, 34-bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild. – T.: O'zbekiston, 1998, 125-bet.

Yurtboshimizning 1992 yilda e'lon qilingan va dasturiy ahamiyat kasb etgan «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» kitobning «Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari» deb nomlangan alohida bobida ko'rsatilgan to'rt asosiy negiz buning asosiy mazmunini ochib bergan:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik.

Bu tushunchalar bir-biridan ajralmas va bir-birini taqozo etgan holda, O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatini qurishda mustahkam asos vazifasini o'taydi.

Shuning uchun ham Prezident Islom Karimov 2002 ypl 29 avgustdagi O'zbekiston Rsspublikasi Oliy Majlisining Ikkinchi chaqiriq to'qqizinchi sessiyasidagi ma'ro'zasida yana bir bor bu masalaga e'tiborni qaratib, shunday dedi:

«Xo'sh jamiyatning ma'naviy yangilanishi, deganda nimani tushunmoq kerak? Ma'naviy yangilanishning mazmun-mohiyati nimadan iborat?

Darhaqiqat, demokratiya har bir inson uchun oliy qadriyatga, jamiyatning boyligiga aylanmog'i kerak. Busiz u shunchaki nazariya yoki kog'ozda qolgan qonunligicha qoladi, xolos. Barcha islohotlarimizning bosh yo'nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradigan inson omili va mezonidir.»<sup>1</sup>

Negaki, bozor iqtisodiyotini barpo etish birdan-bir maqsad emas. Barcha islohotlar – iqtisodiy, siyosiy islohotlardan ko'zlangan pirovard maqsad insonning ijodiy va ma'naviy imkoniyatlarini ruyobga chiqarishdan iborat. «Shu sababli, - deb ta'kidlagan edi Prezident I.A.Karimov, - jamiyatning sifat jihatidan yangi

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasidagi ma'ruzasida bayon etilgan asosiy vazifalar va qoidalarni keng yoritish bo'yicha tashkiliy-ma'rifiy tadbirlar dasturi. – T.: O'zbekiston, 2002. 29-bet.

holatga o'tishida bizga islohot chog'ida odamlar moddiy ahvoli keskin yomonlashadigan, ahloqiy qadriyatlar, ma'naviy tayanchlar barbod bo'ladigan, o'tish davrining barcha qiyinchiliklari aholi elkasiga tushadigan andoza maqbul emas»<sup>1</sup>. Binobarin, eng avvalo, erkin fikrlaydigan odamgina o'z Vatanniing haqiqiy farzandiga aylanadi. Chunki tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan kutilmasa, inson to'la ozod bo'lolmaydi. Inson ozod emas ekan jamiyat demokratik tamoyillarni qabul qilmaydi.

Demak, inson manfaatlarini amalga oshirish uchun zarur sharoit, imkoniyat yaratish orqaligina demokratik jamiyatni barpo etish mumkin.

O'zbekistonda kechayotgan demokratik o'zgarishlarni jamiyat ma'naviy yangilanishi bilan borliqligining yana bir jihati bor. Ana shu borliqlik Prezident I.A.Karimovning bir qator risolalarida va ma'ro'zalarida alohida ta'kidlangan. U O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining umumiy yig'ilishida (1994 yil 7 iyulda) so'zlagan nutqida shunday degan edi: «Buyuk ajdodlarimizning beqiyos ma'naviy merosi, ming yillik tariximiz va madaniyatimizga asoslangan ma'naviy xayotimizni tiklay boshladik. Dinimiz va tilimizga qaytdik, milliy urf-odatlarimiz va an'analarimiz, xullas, inson ma'naviyatiga daxldor barcha boyliklarimiz qaytadan qad rostlayapti»<sup>2</sup>. Darvoqe, Prezidentimizning ma'naviyat, uning mohiyati to'g'risida nazariy-ilmiy fikrlari g'oyat chuqur va keng qamrovlidir. Shuningdek, u ma'naviy tarbiya – mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo etishning muhim sharti ekanligiga alohida e'tibor beradi. Dunyo tarixida mustaqillik va ozodlik kurashchilari timsoliga aylanganlardan biri, XX asr buyuk hind davlat arbobi Maxatma Gandi: «Insoniyat – bu yagona oila, bo'linmas oila. Uning har bir a'zosi sodir qilgan jinoyat uchun har birimiz javobgarmiz», degan edi. U yoki bu millat yoxud davlat ana shu insoniyat degan katta oilaning ichidagi kichik oila. Ana shu oila a'zolarida bahamjihatlik, ma'naviy mushtaraklik bo'lmas ekan, ular Gandi so'zlarida aks etgan ma'naviy burch hissi bilan yashamas ekan,

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T.: O'zbekiston, 1996. 322-bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999, 17-bet.

yorur kelajak haqidagi o'ylar xomxayol bo'lib qolaveradi. Zero, demokratik rivojlanish barqarorlik va ijtimoiy hamkorlikka tayanadi.

Odamlar Ma'naviyat rishtalari bilan bog'langandagina ular xalq, millatga aylanadi. Chunki «ma'naviyat – insonni ruxni poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuchdir.

Ma'naviyat mavhum tushuncha emas. U millat bilan, milliy tafakkur bilan, millatniig tarixi, asrlar mobaynida to'plangan bilim va tajribasi, tushunchalari, tasavvurlari bilan bog'liq. Frantsuz ma'rifatchisi Jan Jak Russo Evropa jamiyati haqida ulkan siljishlar sodir bulayotgan XVIII asrda xalqda milliy xarakterni shakllantirish birinchi vazifa, deb bilgan edi. Chunki uning nazdida «har qanday yaxshi o'zgarishlarning umumiy maqsadlari har bir davlatda mahalliy shart-sharoit va aholining o'ziga xos xususiyatlari asosida shakllanadigan munosabatlarga muvofiq shakl olishi kerak»<sup>1</sup>. J.Russoning fikrlarini bugungi kun nuqtai-nazaridan talqin qilsak, demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish, adolatli, ma'naviyati yuksak insonlar jamiyatini qurishda jahon tajribasiga tayangan holda, avvalo, milliy mentalitetni inobatga olish kerakligi ma'lum bo'ladi ayni paytda shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda kechayotgan demokratik o'zgarishlar jamiyat ma'naviy yangilanishiga borliqligini faqat o'zbek millati ma'naviyati bilan bog'lash va uni shunday deb bag'olash adolatdan emas. Balki uning bilan yagona bir mamlakat xududida yashayotgan turli xalq va millatga mansub bo'lgan barcha aholining, turli etnik birliklar va ijtimoiy guruhlarning ham umumiy boyligi, deb qarash haqiqatga yaqinroq bo'ladi.

Demak, O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatida barpo etish vazifasini ma'naviy yangilanishlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bu xaqiqatni hech qachon unutmashlik kerak.

Demokratiya, bu kishilarning birgalikda xayot kechirishi, muammolarni bahamjihatlik bilan hal qilishi, shaxsiy manfaatlarni jamoa, millat, davlat

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999, 17-bet

manfaatlari bilan uyg'un ko'rishi, bir so'z bilan aytganda, murosqa qilish madaniyatidir.

1983 yili jahonning 29 mintaqasi olimlari, jamoat arboblari iborat «Gumanitar muammolarni o'rganish bo'yicha Xalqaro Komissiya» tuzildi. Komissiya XX asrdagi gumanitar vaziyat va uni takomillashtirish ustida izlandi. Jazoir, Shveysariya, Polsha, Avstriya, Xitoy, Hindiston, Meksika, Eron, Shvetsiya, Yaponiya – jami 29 mamlakatning ma'rifatparvarlari dunyodagi gumanitar muammolarni amaliy o'rgandilar. «Insoniyat ahloqi», «Global masalalar» (ya'ni, ekologiya, qashshoqlik, qurollanish, terrorizm, narkomafiya), «Ommaviy qirg'in qurollari», «Qurolli to'qnashuvlar», «Daydi bolalar», «Oziq-ovqat inqirozi», «Cho'l-sahrolarning kengayib borayotganligi», «Favquloddagi vaziyatlar», «Urushlar» kabi halokatli holatlarning kelib chiqish sabablarini tahlil etib, barcha muammolar insoniy tuyg'ularning susayishi, ya'ni ma'naviy qadriyatlarning qadsizlanishi bilan bog'liq, degan xulosaga keldilar. Ularning turt yillik mehnati natijasi bo'lgan kitob «Insoniyat insoniyligini saqlab qola oladimi?» (Nyu Jersi, 1989) degan nom bilan jahon tillarida nashr qilindi.

Ma'naviy barkamol inson haqidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar, falsafiy fikrlar tarixda kuni kecha paydo bo'lgan emas. Uning tarixiy ildizlari Sharq mutafakkirlari ijodiy, falsafiy ta'limotlariga borib taqaladi. Eng rivojlangan demokratik mamlakatlar tarixiy taraqqiyotini o'rganish shundan dalolat beradiki, biron-bir jamiyat dastlab barkamol avlodni voyaga etkazmasdan turib, buyuk o'zgarishlarni sodir etolmagan. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining taqdiri, uning kelajagi ham bunday mustasno emas. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ta'kidlab kelinayotganidek, har qaysi jamiyat, har qaysi davlat va millat qudrati, uning tabiiy boyliklari, xarbiy kuchiga hamda ishlab chiqarish texnologiyalariga borliqligi nisbiydir. Uni birinchi navbatda dunyoga tanitadigan, yuksak madaniyatli ma'naviy barkamol insonlardir. Masalaga ana shu nuqtai nazardan yondashish muhim ahamiyatga egadir. Negaki, demokratik jamiyatni faqat ma'rifatli, ma'naviy barkamol kishilargina barpo etishi mumkin. Prezident Islom

Karimov Oliy Majlisning Birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» ma'ruzasida «Biz sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga etkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sharqona ahloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz», degan fikrlari demokratik jamiyatni barpo etishda barkamol avlodni voyaga etkazish strategik ahamiyatga ega ekanligi isbotidir. Shu o'rinda, barkamol shaxs tushunchasi, uning demokratik jamiyatni barpo etishdagi o'rni masalasini tahlil etish muhim ahamiyatga egadir. Albatta, bu Sharqning buyuk allomalari asarlarida komil inson masalasi doimiy ravishda katta o'rin olib kelganligiga va ularni bezovta qilganligiga ham borliq emas.

Bu muammoga o'z munosabatini bildirgan Yurtboshimiz shunday deydi: «Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir ahloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona ahloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Komil inson deganda, biz avval, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikri-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi, etuk odam bo'ladi».<sup>1</sup> Ana shunday barkamol, etuk insonlarni tarbiyalab, voyaga etkazish mustaqillikni mustahkamlash, uni ko'z-qorachig'iday asrab-avaylash talab-ehhtiyoji bilan bog'liq bo'lgan ob'ektiv taraqqiyot zaruratidir.

Buyuk shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy bundan besh asr oldinoq komil insonlar haqidagi ta'limotini yaratgan edi. Uning bu haqdagi fikrlari asosan «Maxbub ul-qulub», «Hayrat ul-abror», «Nasoyimul muxabbat» asarlarida o'z ifodasini topgan. Alisher Navoiy komil insonga xos xususiyatlarni, uning xislat va fazilatlarini batafsil sanab o'tgan. U «Maxbub ul-qulub» asarida «Odam ikki dunyoning eng aziz va sharof mahluqidir» degan so'zni keltiradi. A.Navoiy fikricha, Parvardigorning olamni yaratishdan maqsadi inson edi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. -T.: O'zbekiston, 1999, 134-bet

Shunday ekan, mamlakatimiz kelajagi, demokratik islohotlar taqdiri kishilarning, butun xalqning ongi, ma'naviyati darajasiga bog'liq. Inson ruhiyati sog'lom bo'lsa, o'zligini anglasa, shaxsga aylanadi. Kishi shaxs darajasiga ko'tarilsagina, ya'ni o'z mustaqil fikriga, dunyoqarashiga, chinakam insonni fazilatlarga ega bo'lganidagina, «demokratiya ne'matlariningoddiy iste'molchisi emas, balki ularning faol yaratuvchisi va himoyachisiga aylanadi. Shunda demokratiya fuqarolik jamiyati asoslarini amalda barpo etish, inson haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlashi mumkin bo'ladi».<sup>1</sup>

Sobiq totalitar tuzum davrida olib borilgan xalqlarni yalpi manqurtlashtirish siyosati o'zbek xalqini ham o'z tarixidan, madaniyatidan, ma'naviy quvvatidan, milliy hissiyotidan, o'zligidan ayirishga ancha-muncha ulgurdi. Sovetlar davridan qolgan bunday og'ir «meros» haqida keyinchalik Prezident I.A.Karimov shunday fikr bildiradi: «Bu tuzum o'z xalqining tarixini, uning ruhi va urf odatlarini, o'z avlod-ajdodini bilmaydigan manqurtlarga tayanar edi»<sup>2</sup>.

O'zoq yillar davom etgan tutqunlik, g'ayrinsoniy mafkuraning yakka hukmronligi bizga mutelikni singdirdi. Mutelik o'zbek xalqining azaliy qadriyatlari – andisha, nazokat libosini kiydi va haqiqatni dadil aytish, o'z fikrini ochiq bildirish, yumshoq aytganda, beodoblikka, beandishalikka yo'g'rildi. Vaholanki, demokratiya – yaxshi niyatli rostgo'ylikni fikr erkinligini taqozo etadi.

Afsuski, sobiq Ittifoq xududida bu kabi eski kasalliklardan xalos bo'lmagan kimsalar hamon uchramoqda. Buni I.Karimov Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasidagi ma'ro'zasida yana bir bor alohida ta'kidlab, shunday deydi: «...o'z umrini yashab bo'lgan, siyosiy jihatdan kasodga uchragan, kommunistik mafkuraga asoslangan tizimni sog'inib-qo'msab gapirayotgan ayrim siyosat va davlat arboblari eski tuzum tarafdorlari yana qaytadan bosh ko'tarayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz ...Bir so'z bilan aytganda, SSSRning soyasi sobiq Ittifoq mintaqasidan hali beri butunlay ko'tarilgan emas va

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari, «Xalq so'zi», 2002 yil 30 avgust.

<sup>2</sup> Karimov. I.A Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. – T.: O'zbekiston, 1996, 7-bet.

buni biz doimo inobatga olishimiz, hamisha sergak va xushyor bo'lib yashashimiz zarur»<sup>1</sup>.

Shukrlarkim, xalqimiz ongi, qalbiga chuqur singigan minglab yillik ma'naviy qadriyatlarimiz, milliy an'analarimiz uni zo'rlik bilan yulib tashlashga harakat qilingai kommunistik mafkuraning domiga tuliq tushib qolmadi. Ammo Abdulla Qahhor ta'biri bilan aytganda: "Erning sho'rini yuvish oson ekan-u, odamning ongidagi sho'rini yuvish qiyin" ekanki, «manqurtlik kasali»ning asoratlari ba'zi kishilarimiz ongi va ruhiyatida hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Erkin fuqarolik jamiyatini qurishda tarixni, ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosni o'rganish va amalda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tariximiz qancha ko'p o'rganilsa, undan bugungi ma'naviyat, g'oyaviy islohotlar uchun shuncha ko'p amaliy tavsiyalar chiqaveradi. Hazrat Navoiyning: «Ozod bo'lmoq istasang, o'zingni ozod tut», degan so'zlari bugungi voqelik bilan bog'liq emasmi? Yoki yana bip misol: o'rta asrlar tibbiyot ilmining bir tarmog'i – ma'naviyat tibbiyoti deb atalgan ekan. «Ma'naviy tibbiyot» degan bitta nomda Al-Kindi (800-860 y.y.), Abu Bakr Ar-Roziy (865-925 y.y.), Abu al-Farax Abu ar-Raxmon ibn Javziv (vafoti-1201 y.), Abu Ishoq Ibrohim ibn Yusuf Ash-Sheroziy (vafoti - 1093 y.) kabi ko'plab Sharq allomalari o'z kitoblarini yozib qoldirganlar. Tan tabobati inson jismi bilan bog'liq kasalliklarning oldini olish va davolash bilan shug'ullangan bo'lsa, ma'naviy tibbiyot inson qalbi, ongini illatlardan forig' etishga, insoniy fazilatlarni takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tarixning achchiq saboqlaridan yana biri shuki, ma'naviyat, ahloq-odob har bir inson xatti-harakatlari, faoliyati va ehtiyojlarining mezoniga aylanmay turib, jamiyat bironta muammoni samarali hal etishi va ijtimoiy taraqqiyotga erishishi mumkin emas.

Turkiston o'lkasining XIX asr 70-yillarida Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylanishi tarixi buning yorqin misoli bo'la oladi. Xalqimiz

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. «Xalq so'zi», 2002 yil 30 avgust.

tarixidagi bu kayg'uli hodisaning ko'plab sababini keltirish mumkin. Ammo eng asosiysi, jamiyatning ruhiy evrilishga uchragani, elga bosh bo'lishi lozim bo'lgan hukmdorlardan tortib, boy va ulamolargacha o'z shaxsiy manfaati doirasida o'ralashib qolganligi, istiqlol uchun kurashgan ziyolilarning sa'y-harakatlariga qaramay, jamiyat kishilari birlasha olmaganli ekanligi, desak xato qilmaymiz. Zero, XX asr boshlarida taraqqiyparvar ziyolilardan biri aytganidek: «Insonning dunyoda yashamog'i uchun molu jonga ehtiyoji bo'lsa-da, dunyoning izzati va oxiratning saodati uchun vosila bo'lungan ilmu adabg'a ziyodaroq ehtiyoji bordur. Molu jonni ilmu adab birla makrun bo'lmaganlari holda dunyoda sababi ta'nu la'ni mardumon va oxiratda baloyi jon bo'lulvarig'a shubha yo'qdur».<sup>1</sup>

Tarixiy taraqqiyot yo'lida insoniyat to'plagan tajriba va saboqlar ma'naviy mezon va qarashlar tizimi sifatida avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadi. I.A.Karimovning tarixchi olimlar bilan suhbatda ta'kidlaganidek: «Tarix – xalq ma'naviyatining asosidir»<sup>2</sup>.

Tarix saboqlari insonni ruhiy evrilishdan asraydi. Biroq ta'kidlash joizki, ma'naviyat faqat meros bo'lib avloddan-avlodga o'tadigan tarixiy qadriyat bo'lmay, doimiy rivojlanib, yangi davr qadriyatlari bilan boyib, uyg'unlashib boradigan, doimiy xararatdagi hodisadir. Shuning uchun ham mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek: «Bizning an'anaviy qadriyatlarimizni hozirgi demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir»<sup>3</sup>. Shuning uchun ham, mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning to'rt asosiy ma'naviy negizlari ichida «umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik» belgilandi. Bugungi kunda mamlakatimiz ravnakini hozirgi tsivilizatsiya o'zida ifoda etadigan demokratiya, inson huquqlariga rioya etish, tadbirkorlik erkinligi, erkin bozor munosabatlari, so'z erkinligi kabi umuminsoniy qadriyatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

---

<sup>1</sup> «Oyina» (1914-1915 y.) T.: Akademiya, 2001, 42-bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1998. 438-bet.

<sup>3</sup> Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1998, 135-bet

Inson ruhiyati sog'lom bo'lsa, o'zligini anglasa, shaxsga aylanadi. Kishi shaxs darajasiga ko'tarilsagina, ya'ni o'z mustaqil fikriga, dunyoqarashiga, chinakam insoniy fazilatlariga ega bo'lgandagina, «demokratik ne'matlarining oddiy istisnoasi emas, balki ularning faol yaratuvchisi va ximoyachisiga aylanadi. Shundagina demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini amalda barpo etish, inson xaq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlash mumkin bo'ladi»<sup>1</sup>.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsad etib belgilangan bir paytda, demokratik tamoyillarni egallash, fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, shaxs erkinligini amalda joriy etish, siyosiy jarayonlarni jipslashtirish, demokratik me'yorlar asosida ko'ppartiyaviylik tizimini takomillashtirish, davlat boshqaruvi organlarining ayrim vakolatlarini bosqichma-bosqich jamoat va o'z-o'zini boshqarish tashkilotlariga o'tkazish kabi vazifalar umuminsoniy qadriyatlarni o'zida ifoda etgan holda ma'naviyat bilan tutashadi.

Yangi davrda jahondagi ilg'or mamlakatlarda shakllangan demokratiya va fuqarolik jamiyatining asosiy qadriyatlari – xalq hokimiyati, fuqarolar manfaatlarini himoyalashga qaratilgan siyosat, siyosiy qarorlarni qabul qilishda ko'pchilikning irodasiga tayanish, ozchilikning huquqlarini hurmat qilish, inson huquqlariga rioya etishning kafolatlanishi, erkin va adolatli saylovlar tizimining joriy etilishi, barchaning qonun oldida tengligi, xokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati kabilar xalqning, har bir fuqaro siyosiy madaniyatini o'zviy va ajralmas qismiga aylanganidagina, demokratik jamiyatni qurish real voqelikka aylanadi.

XVIII asrning mashhur faylasufi Jan Jak Russo: Demokratiya zolimlarni dunyoga keltiradi», deb yozgan edi. Bu o'ta qat'iy aytilgan fikrga to'liq qo'shilib bo'lmasa-da, aytish lozimki, uning ortida real xavfga ishora bor. Sobiq SSSRda kechgan jarayonlar bunga yorqin dalil bo'la oladi. Demokratiya shiorlari ostida olib borilgan siyosat ortida alohida shaxsni ko'pchilikning irodasiga bo'ysundirish

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. «Xalq so'zi», 2002 yil 30 avgust

amaliyoti yashiringan edi. Alohida shaxsning manfaati va huquqlarni qonun bilan himoya etilmagan holda esa, har qanday hokimiyat, hatto demokratiya shaklidagisi ham osonlik bilan avtoritarizm va totalitarizmga aylanadi. Ana shu o'rinda ma'naviyatning ijtimoiy-siyosiy xarakteri, huquq bilan tutash nuqtasi namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, jamiyat hayotini tartibga solish ehtiyoji ma'lum xududda yashaydigan kishilardan jamiyatni boshqarish, odamlar o'rtasida munosabatlarni tartibga solish bilan bog'liq huquqlarni boshqaruvchilarga vakolat tarzida topshirish talab etdi va shu asnoda davlatchilik yuzaga keldi. Lekin boshqarish huquqi berilgan kishi o'z vakolatlari doirasini o'zboshimchalik bilan kengaytirsa, demokratik jamiyat qurish imkoniyatlari tobora torayadi. Bashariyat tarixi tobora tasdiqlangan bu haqiqatni bundan qariyb 2000 yil avval rimlik mashxur notiq va davlat arbobi Tsitseron e'tirof etgan edi. Uning fikricha, davlat (Rim)ning tayanchi ko'hna udumlar (ma'naviy meros) va haqiqiy erlardir. Demak, davlatning gullab-yashnashi uchun, avvalo, ma'naviy-ahloqiy islohotlarni amalga oshirish kerak. Bu vazifani esa, Tsitseron aytganidek, ahloqiy fazilatlariga ega bo'lgan rahbargina ado etishi mumkin.

Demak, jamiyatdagi demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish uchun ma'naviyat siyosatining bosh tayanchi bo'lmog'i kerak. Shuning uchun ham mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov demokratik fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish uchun «insofli, diyonatli odamlarningina rahbarlik to'nini kiyishga ma'naviy haqi bor»ligini ta'kidlab kelmoqda.

Prezident Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi seesiyasidagi «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» ma'ruzasida islohotlarning bosh yo'nalishini belgilab beradigan quyidagi ustuvor vazifalarni ko'rsatib o'tdi: «Fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi ma'naviyat va ma'rifat sohasida, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borishdan iborat.

Bu hayotiy haqiqat biz hamisha amal qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog'i hamda o'zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog'i lozim. Bu tizim markazida ma'naviyat, ahloq-odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak».<sup>1</sup>

Ma'naviyat inson ruhiyatida voqe bo'ladi. Shuning uchun u avvalo, alohida olingan inson bilan bog'liq tushuncha. Ammo inson jamiyatdan ajralmas bo'lib, jamiyatdan tashqarida o'z insonlik mohiyatini yo'qotar ekan, ma'naviyat insonni o'zga odamlarga, jamiyatga, butun borliqqa daxldor qiladi. Shu jihatdan ma'naviyat ijtimoiy mazmun kasb etadi. «Inson o'zini xalqning bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o'ylab, mehnat qilib yashagandagina, ma'naviyat bilan tutashadi»<sup>2</sup>. Demak, har bir kishi o'zining yashash tarziga, o'zgalar bilan bo'lgan munosabatiga jiddiy e'tibor qaratmasdan turib, jamiyat bironta muammoni hal etishi mushkul.

Bugungi kunda har qanday milliy tiklanish va milliy rivojlanishning asosi bo'lgan ma'naviy meros, urf-odatlar, an'analar, yuksak qadriyatlar, tarixiy xotira xalqimizga qaytarildi. Milliy o'zligini, huquqlarini tobora teranroq anglab borayotgan xalqimiz uchun buyuk kelajakni barpo etish yo'lida bu boy imkoniyatlardan foydalanish, barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni milliy rivojlanishga, O'zbekistonda demokratik-huquqiy jamiyat qurish ishiga yo'naltirishga safarbar etishdek ulkan imkoniyatlar yaratildi.

## **Xulosa**

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. 11-jild. – T.: O'zbekiston, 2002, 81-bet.

<sup>2</sup> O'sha joyda.

Xulosa qilib aytganda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar -O'zbekistonda milliy axlokni shakllanishi va rivojlanishidagi bir-biridan aslo kam bo'lmagan ikki muhim manba, ikki tayanch nuqta, ikki o'k ildizdir. Xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an'analari, urf-odatlar, til va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi, umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg'unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg'usini odamlar qalbi va ongiga etkazish, ularni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashi halollikni, mardlik va sabr bardoshlikni, adolat to'yugusini bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalash yo'lida xizmat qilmog'i lozim. U davlat fuqarolarining buyuk maqsad yo'lida ma'naviy yaqinlashuviga ko'maklashmog'i kerak.

O'zbek xalqi ko'p qirrali boy madaniyatga ega bo'lgan va o'z madaniyati bilan jahon tsivilizatsiyasi rivojiga munosib hissa qo'shib kelgan. Xalqimiz tomonidan uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratilgan madaniyatimiz o'zining tarixiy ildizlariga, o'z qadriyatlariga egaki, u ana shu qadriyatlar negizida rivojlangan va shakllangan.

Insonning shaxs sifatida tarbiyalanib shakllanishida xalqimiz tomonidan yaratilgan boy madaniy-ma'rifiy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Bunga ilmiy-texnika va aqliy imkoniyatlar, maorif, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, milliy qadriyatlar, turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy yodgorliklar, arxitektura va boshqalarni kiritish mumkin.

Yoshlarni bo'lg'usi mustahkam oila vakillari bo'lib etishishlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni beqiyos. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq: "Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnicilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va

har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishdir”, - deb ta’kidlagan edi<sup>1</sup>.

Haqiqatan mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, millatimizning urf-odatlari, qadriyatlari, dinu-e’tiqodini tiklash, e’zozlash, ulug’lash ishlari keng ko’lamda olib borilmoqda. “Qadriyatlar” – borlik, jamiyat, narsalar, voqealar, xodisalar, inson hayoti, moddiy va ma’naviy boyliklarning ahamiyatini ko’rsatish uchun qo’llanadigan tushuncha.

Qadriyatlar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lgan ma’naviy omil sanaladi. Qadriyatlarni faqat qadrlanadigan narsalar, qimmatbaho buyumlar deb hisoblash emas, balki ana shu buyumlar va voqea-hodisalarning ijtimoiy ahamiyati qadriyat sifatida baholanadi.

Qadriyatlar ta’lim-tarbiyaning muhim vositasi sifatida inson xayoti, umri, vujudining tirikligi, sihat-salomatligi, mehnati, bilimi, muomalasi kabilarga jiddiy ta’sir etadi. Yosh avlodda qadriyatlarga munosabatda bu xislatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat taraqqiy etgan sari umuminsoniy qadriyatlar ko’payib boraveradi. Masalan, erkinlik, tinchlik, tenglik, ma’rifat, haqiqat, ma’naviyat, go’zallik, yaxshilik, insonparvarlik, insoniylik, demokratiya, qonun ustuvorligi va boshqalar.

Demak, qadriyatlar deganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo’lgan barcha narsalar tushuniladi (erkinlik, tinchlik va yaxshilik). Moddiy qadriyatlarga esa xayotda kerak bo’ladigan turli buyumlar kiradi. Xullas, insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklarning eng sarasi, merosi qadriyatlar hisoblanadi.

Jamiyatning ma’naviy yangilanishida, ertangi kunimizning egasi bo’lgan yoshlarni komil shaxs sifatida tarbiyalash, zamon talablariga javob beradigan insonlar qilib tayyorlashda milliy qadriyatlarimizdan foydalanishning eng maqbul yo’llari va usullarini topish, ulardan o’rinli va unumli foydalanishdan iborat. Ayniqsa, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida: dars jarayonlarida ham,

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li// O’zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O’zbekiston, 1999, 56-bet.

mashg'ulotlardan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarda ham boy milliy qadriyatlarimizdan ijodiy foydalanish yaxshi samara beradi. Darslarda, sinfdan va darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etishda ta'lim-tarbiya jarayoniga an'anaviy va noan'anaviy yondashuvlardan samarali foydalanish, mashg'ulotlarni ham yakka tartibda, ham guruxlarda olib borish maqsadga muvofiq.

Shaxs ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlardan foydalanilganda ayniqsa, baxs-munozaralar, davra suhbatlari, konferentsiyalar, ekskursiyalar, tadqiqot ishlari, ko'rik-tanlovlar, matbuot konferentsiyalari kabi o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarning xilma-xil shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Dape mashg'ulotlari va sinfdan tashqari tadbirlarni o'tkazishda ayniqsa, ko'rgazmali vositalardan samarali foydalanish lozim bo'ladi. Chunki mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarimizga bag'ishlangan kinofilm, spektakllar, turli xil teatrlashtirilgan tomoshalarning video tasmlari, mumtoz qo'shiqlar yozib olingan disklar ko'plab yaratildiki, bulardan unumli foydalanish, albatta, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda, jamiyatning ma'naviy yangilanishida ijobiy natijalar beradi. Eng muximi, milliy qadriyatlar asosida shaxs ma'naviyatini shakllantirishda o'quvchi-yoshlar madaniyat, shaxs kamoloti, milliy qadriyatlarga doir bilimlarni egallashlari lozim, ularniig mazmun-mohiyati chuqur anglab olingandagina kutilgai natijaga erishiladi. Bular:

- "ma'naviyat", "shaxs", "shaxs ma'naviyati", "milliy va umuminsoniy qadriyatlar" tushunchalarinipg mohiyatini anglab etishi;

- "inson" bilan "shaxs" tushunchasini farqlay olishi;

- insonparvarlik, ahil qo'shnicilik, tolerantlik tushunchalarining mazmun-mohiyatini bilishi;

- inson tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarnng o'rni haqida bilishi;

- "qadriyatlar", "milliy qadriyatlar", "umumbashariy qadriyatlar" tushunchalarining mohiyatini bilishi va xokazolar.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O`zbekiston, 2013.
2. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiYotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997.-64 b.
3. O`zbekiston Respublikasi Kadrlar tayYorlash milliy dasturi. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiYotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997.-64 b.
4. O`zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni // Xalq so`zi, 1995 yil 29 dekabr.
5. Lotin alifbosiga o`tish to`g`risidagi Qonun. - Toshkent: O`zbekiston, 1993.-22 b.
6. «2004-2009 yillarda maktab ta`limini rivojlantirishning davlat umummilliy dasturi» to`g`risidagi Prezident Farmoni // Ta`lim taraqqiYoti. -Toshkent, 2004. - №3. - B. 26.
7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. 7-jild, Toshkent: O`zbekiston, 1999. - 135 b.
8. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat - engilmas kuch. - T.: Ma`naviyat, 2008. -176 b.
9. Karimov I.A Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. T.: O`zbekiston, 2010.
10. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.- O`zbekiston.2011.
11. Prezident I.A.Karimovning O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining 22 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so`zi. "Xalq so`zi", 2013 yil 1 sentabr.

12. O`zR Vazirlar Mahkamasining «Ma`naviyat va ma`rifat» jamoatchilik markazi qoshida «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg`armasini qo`llab-quvvatlash to`g`risidagi qarori. -T.: Adolat, 1996. 27 sentabr.
13. O`zR Prezidentining «Ma`naviyat va ma`rifat» jamoatchilik markazini tashkil etish to`g`risida»gi (1994 yil 23 aprel) Farmoni. // O`zR Prezidentining Farmonlari. — T.: Adolat, 1995.
14. O`zR Prezidentining «Respublika ma`naviyat va ma`rifat Kengashini qo`llab-quvvatlash to`g`risida»gi (1999 yil 3 sentabr) Farmoni hamda O`zR Ma`naviyat va ma`rifat kengashining faoliyati dasturi va Nizomi. // O`zR Prezidentining Farmonlari.-T.: Adolat, 2000.
15. O`zR Vazirlar Mahkamasining «Madaniy meros ob`ektlarini muxofaza qilish va ulardan foydalanish to`g`risida»gi qarori. -T.: Adolat, 2001. 30 avgust.
16. Abdullaev M.A. Madaniyat asoslari. - Farg`ona: 1998.- 179 b.
17. Aliev A. Ma`naviyat, qadriyat va badiiyat. - T.: Akademiya, 2000.
18. Alimov X. Milliylik va ijtimoiy ruxiyat.- T.: O`zbekiston, 1992.- 70 b. 17. Abdurahmonov F.R. Mustaqillik va milliy manfaatlar. - T.: Fan, 1994.- 108 b.
19. Abdurahmonov F. O`zbekiston Respublikasining mustaqillik sharoitida milliy manfaatlar muammolari. (Ijtimoiy-falsafiy taxlili).- T.: 1995.- 301 b.
20. Baxronov J. Shaxsning milliy o`zligini anglash qonuniyatlari. Samarqand:. Zarafshon, 1995.— 120 b.
21. Bekmurodov M. O`zbekistonda jamoatchilik fikri.-T.: 1999.-243 b.
22. Jalolov A. O`zbekiston: mustaqillik ma`naviy mafkura (falsafiy -siyosiy musohabalar va maqolalar). - T.: O`zbekiston, 1994. 95 b.
23. Ibrohimov A. Biz kim O`zbeklar. - T.: Sharq, 1999. - 400 b.
24. Ismoilov X. O`zbek to`ylari. - T.: O`zbekiston, 1992. - 189 b.
25. Mahmudov S. O`zbek udumlari. -T.: Fan, 1993. - 221 b.

26. Mansurova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.- T.: O`zbekiston, 1996. - 190 b.
27. Nazarov Q. Qadriyatshunoslik zamonaviy yo`nalishlari. - T.: 1993. -19 b.
28. Najimov G. Madaniyat va xalq an'analari.-T.: O`zbekiston, 1992. - 120 b.
29. Sodiqov M. Erksevar, hurriyatparvar el vorislarimiz. - T.: Kamalak, 1992. - 85 b.
30. Otamurodov S., Otamurodov S. O`zbekistonda ma'naviy- ruxiy tiklanish (sotsial-falsafiy taxlil). Yangi asr avlodi. - T.: 2003. 123.
31. Soifnazarova F. Soifnazarov I. Tarbiya: odob va oqibat. - T.: O`zbekiston, 1991. -63 b.
32. To`lenov J. G'ofurov 3. Mustaqillik va milliy tiklanish. T.: O`zbekiston, 1996. -253 b.
33. Xayrullaev M. Islom, tarix va ma'naviyat. - T.: 2000. 137.
34. Xonazarov Q. Ijtimoiy hayot va yangi urf -odatlar.-T.: O`zbekiston, 1987. - 30 b.
35. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. - T.: Universitet, 1998. - 184 b.
36. Najimov G. Madaniyat va xalq an'analari. T,: O`zbekiston, 1992.-120 6.
37. Po`latov X. Sizni yaxshi ko`rardim, odamlar.T.:Fan 1994.-117 b.
38. Svirskiy SL. Formirovanie nauchnogo mirovozregaya i xudojestvennaya linteratura. T.:O`zbekiston, 1973.-264 b.
39. Tulenov J., Yusupov K., G'afurov 3. Istaqlol va taraqqiyot mafkurasi: maqsad va yo`nalishlari. T.:O`zbekiston 1993.-48 b.
40. Tulenov J., G'afurov 3. Mustaqillik va millny tiklanish. T.: O`zbekiston 1996.-254 b.
41. Tulenov J Qodirov B.G'. G'afurov 3. Ma'naviy yuksalish sari.T-: Mehnatg, 2000.-189 b.

42. Xo`jamurodov I.R. Ma`naviy qadriyatlar va milliy o`zligini anglash. T.: O`zbekiston, 1991.- 150 b,
43. Shayxova X., Nazarov K. Umuminsoniy qadriyatlar va ma`naviy kamolot. T.: O`zbekiston, 1992.-118 b.
44. Shermatova G. Vazimodeystvie natsionalnmx kul'tur i duxovnoe formirovanie lichnosti. -T.: Fan, 1986.-180 b.
45. Shermuxamedov S. Falsafa fani yangilanishining ba'zi muammolari. T.: Fan, 1996.-180 b.
46. O`zbekistonning milliy mustaqil mafkurasi. T.: O`zbekiston, 1993.-120 b.
47. Ma`naviy-ma`rifiy ishlarni takomillashtirish to`g`risida. Vazirlar Mhkamasining qarori. // Xalq so`zi, 1996, 28 sentabr.